

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA ORTA MAXSUS
TALIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI

ZAYNUTDINOV ZIYOVUDDIN FAXRIDDINOVICH

**“O'ZBEK TILIDAN XITOIY TILIGA SIYOSIY MATNLAR TARJIMASI
VA UNING O'ZIGA XOSLIKLARI”**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

5A120201 – TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI IXTISOSLIGI
(XITOIY TILI)

Annotasiya

Mazkur tadqiqot ishi o`zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasining nazariy va amaliy masalalari, xususan, siyosiy terminologiya xususiyatlari, leksik birliklarning tanlanishi, turg`un birikmalarning siyosiy tarjimada berilishi singari bir qator masalalarga bag`ishlangan.

Ilmiy rahbar:

Siyosat fanlari nomzodi, dotsent

Bekmuratov I.N.

TOSHKENT – 2013

MUNDARIJA:

Kirish.....	2-6
I-BOB. Siyosiy matn tarjimasining umumtilshunoslik masalalari bilan bog'liqligi	
I.1. Siyosiy matnning lisoniy xususiyatlari	7-9
I.2. Siyosiy matn tarjimasi va uni amalga oshirishda e'tiborli jihatlar	10-21
II-BOB. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasining nazariy masalalari	
II.1. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasi va siyosiy terminologiya	22-36
II.2. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasida leksik birliklarning tanlanishi	37-46
II.3. Siyosiy matnlarda qo'llanilgan turg'un birikmalarning tarjimada berilishi masalalari	47-51
III-BOB. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasi tahlili bo'yicha amaliyot	
III.1. O'zbek tilidagi siyosiy matnlarni vositachi til orqali xitoy tiliga tarjima qilish amaliyoti	52-69
III.2. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy sintagmalar tarjimasi.....	69-75
Xulosa.....	76-78
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yhati.....	78-81

KIRISH:

Mavzuning dolzarbligi. Qadim zamonlardan buyon har bir davrning tarixiy qiyofasini o'sha davrning avvalambor siyosiy, so'ng esa iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy xolati yaratib bergan. Quldorlik, feodal, sotsialistik, kommunistik siyosiy tizimlarining o'rnatilishi yoki barbod etilishi bilan mamlakatlarning taqdiri belgilangan. Ibtidoiy jamiyat davridan boshlangan oila, qabila, urug' jamoachiligida mavjud bo'lmish boshqaruv faoliyati ilk siyosat tushunchasiga asos bo'la oladi. Ma'lumki, aynan o'sha urug'chilik davridan o'zaro boshqa urug'lar bilan ham aloqa olib borishga bo'lgan extiyojning o'sishi natijasida, tilmochlik faoliyati yuzaga kelib asta-sekin rivojlana borgan. Urug'lararo mahsulot ayriboshlash, nikoh tuzish, hududiy chegara bo'lishish singari kelishuvlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish zarurati bilan tom ma'noda siyosiy tarjimonlikning ham ana shu qadar erta dunyoga kelganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Mana necha ming yillar o'tsinki, siyosiy tarjimonlik faoliyatining qadr-qimmatini ortib kelgan bo'lsa borki, lekin hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Xoh osuda, xoh urush davrlarida bo'lsin, siyosiy tilmochlarning rizqi yerda qolmagan.

Xozirgi zamonamizda jamiyat hayotini siyosiy axborotlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Insonlarga kundalik zarur bo'lgan bunday ma'lumot, xabarlar o'zga tillardan adekvat tarzda o'girilib yetkazilishi darkor. Aks holda, tarjimonning aybi – tilni mukammal bilmasligi yohud siyosiy savodsizligi oqibatida boshqa chet mamlakat haqida noto'g'ri fikr tug'ilishi mumkin. Shu tufayli tarjimondan siyosiy matnlarni tarjima qilishda lisoniy bilimlar bilan birga g'ayrilisoniy entsiklopedik bilimlar ham talab etiladi. O'zga tildan o'z tiliga tarjimonlik faoliyati bir oz yengilroq hisoblanadi. Chunki ona tili grammatikasi, sintaktik qurilishi, stilistikasi, lug'at boyligi, bir so'z bilan aytganda lisoniy sir-sinoatini o'sha til ona tili hisoblanuvchi kishi mukammal egallagan bo'ladi. Ona tilidan chet tiliga tarjima qilish esa aynan shu sabablarga ko'ra murakkabroqdir. Shunday ekan, o'zbek

tilidagi siyosiy matnlarni chet tillariga tarjima qilish yuz karra sinchkovlik va extiyotkorlikni talab qiladi.

Ushbu biz tanlagan mavzuning dolzarbligi zamonaviy kommunikativ vaziyatda tarjimaning ahamiyatining o'sib borishi bilan belgilanadi. Xitoy dunyosi iqtisodda ham, siyosatda ham yetakchi o'rinlarni egallab bormoqda va shuning bilan tarjimalar hajmi O'zbekiston va XXR o'rtasidagi siyosiy, madaniy va savdo aloqalarining kengayib borishi bilan proporsional ravishda o'sishda davom etyapti. Lekin tarjimonlik sohasida, ayniqsa siyosiy matnlar tarjimachiligi bo'yicha o'zbek-xitoy til kombinatsiyasi doirasidagi ilmiy ish va tadqiqotlar ancha oz. Bu esa o'z o'rnida xitoy va o'zbek tarjimashunoslaridan mazkur til juftligidagi tarjimachilik qonuniyatlarini ochishga yo'naltirilgan qiyosiy tadqiqotlar olib borish uchun kuchlarni safarbar qilishlarini talab etadi.

Mazkur tadqiqot ishimizda o'zbek tilidagi siyosiy matnlarni xitoy tiliga tarjima qilishdagi nozikliklar, ya'ni siyosiy atamashunoslik, siyosiy matnlar tarjimasida leksik birliklarni tanlash, vositachi til orqali tarjima faoliyatidagi muammolar, siyosiy matnlarda frazeologizmlarni muvofiq tarjima qilish masalalarini atroflicha tahlil qilishga urindik.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur ishimizga materiallar to'plash jarayonida biz duch kelgan o'zbek tarjimonchiligida siyosiy matnlar tarjimasiga bag'ishlangan ishlar ozchilikni tashkil qildi. Ishimizga bevosita aloqador manbalardan I.V. Voysexovich, A.F. Kondrashevskiy "Китайский язык/Общественно политический перевод" hamda ingliz tili o'quvchilari uchun mo'ljallangan V.V. Alimov, Yu.V. Artemyevning "Общественно-политический перевод: Практический курс перевода" o'quv qo'llanmalari bilan tanishib chiqdik. Ushbu qo'llanmalarda siyosiy matnlar tarjimasining nazariy asoslari emas, balki amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, davlat va siyosat shakli, xalq xo'jaligi, konstitutsiya tematikalarida turli qiziqarli va foydali matnlar, leksik-grammatik izohlar, mashqlar bilan mavzular keng yoritilgan. Mazkur manbalardan asosan,

siyosiy matnlardagi jumla va sintagmalarni rus tilidan xitoy tiliga, xitoy tilidan rus tiliga grammatik va sintaktik jihatdan to'g'ri tarjima qilishni o'rganishimiz mumkin.

Tarjimashunoslik nazariyasi keng yoritilgan o'zbek tilidagi asarlarda gap asosan badiiy, she'riy, ilmiy-texnikaviy tarjimachilik faoliyati haqida ketgan bo'lsada, siyosiy matnlar tarjimashunosligi uchun ham umumiy bo'lgan nazariy qirralarni olib, shu asosda tahlil olib borishimiz mumkin. Ana shu maqsadda o'zbek tarjimashunoslarimizdan G'aybulla Salomovning "Tarjima nazariyasiga kirish", Qudrat Musayevning "Tarjima nazariyasi asoslari", Ibrohim G'ofurovning "Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish" singari ishlari bizga katta ko'mak bo'lib xizmat qildi. Siyosiy matnlarni tarjima qilishda umumiy tarjima nazariyasiga murojaat qilmay aslo bo'lmaydi. Shu sababli o'zbek tarjimashunos nazariyotchilarimizning ham tarjimada transformatsiya, transliteratsiya, transkripsiya, kal'ka usuli, almashtirish usuli kabi bir qator nazariyalarni siyosiy matnlar tarjimasini tahlil qilish amaliyotida keng foydalandik.

Muammoning yangiligi. Yuqorida o'rganilgan dalillarga tayanib mazkur tadqiqot ishi muammosi o'zbek tilida batafsil o'rganilmaganligi kuzatildi. Shuningdek, ishda tadqiqot mavzusi bilan bog'liq katta hajmdagi asliyatdagi manbalar o'zbek tilidan xitoy tiliga yoki xitoy tilidan o'zbek tiliga o'girilmoqda. Kerakli bo'lgan o'rinlarda manbalarga ilmiylik nuqtai nazaridan izohlar berib o'tildi va ikki tildagi ekvivalentlari keltirildi.

Tadqiqotning maqsadi – o'zbek tilidagi siyosiy matnlarni xitoy tiliga tarjima qilishning leksik, grammatik, sintaktik hususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning vazifalari:

- Siyosiy matn va siyosiy matn tarjimasining xususiyatlarini ko'rsatish;
- Siyosiy terminologiyaning o'ziga hosligi, siyosiy terminlarning yasalishi haqida atroflicha ma'lumot berish;

- O'zbek tilidagi siyosiy matnlarni xitoy tiliga tarjimasida leksik birliklarni tanlash masalalarini yoritib berish;
- O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy sintagmalar tarjimasini amaliy namunalar bilan ko'rsatish;
- O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlarning tarjimasini tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Tadqiqotning predmeti ijtimoiy-siyosiy tematikasi aks etgan siyosiy matnlar hususiyatlarini lingvistik-tarjimashunoslik doirasida o'rganishdan iborat. **Tadqiqotning ob'yektini** o'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar bilan ishlash uchun muvofiq tarjima nazariyasi xususiyatlari, siyosiy tarjimonlik faoliyatida yuzaga keluvchi muammolarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ilmiy asarlari, maqola va nutqlari, asosan, yurtboshimizning 2005 yil Toshkent shahrida chop etilgan "O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi" asari hamda uning xitoy tarjimoni Lyu Syanzhong tononidan tarjima qilinib 2006 yil Pekinda chop etilgan "乌兹别克斯坦人们从来不依赖任何人" *Wuzibiekistan renmen cong lai bu yilan renhe ren* tarjima asari, G'.Salomovning "Tarjima nazariyasi asoslari" va Q.Musayevning "Tarjima nazariyasi asoslari", I.V.Voysexovich va A.F.Kondrashevskiylarning "Китайский язык/ Общественно-политический перевод" o'quv qo'llanmasi, Oshanin I.M. tahriri ostida 1983 yili Moskvada chop etilgan 4 tomli "Большой китайско-русский словарь" ("Xitoycha-ruscha katta lug'at") singari bir qator ensiklopediya va lug'atlar mazkur ishning metodologiyasini belgilaydi. Ishda Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy tekshirish instituti, fundamental kutubxona, Alisher Navoiy, O'zMU ilmiy kutubxonalaridan keng foydalanildi. Xitoyning O'zbekistondagi elchixonasi va Xitoydan keltirilgan manbalar tadqiqot ishining manbai bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot ishining ahamiyati. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti tarjima nazariyasi va amaliyoti sho''basi, xitoy tili va adabiyoti sho''basi, shuningdek xitoy tiliga ixtisoslashgan litseylar va maktablar, qolaversa tarjimashunoslik faoliyati, xitoy tili, xitoy madaniyati, pedagogik tajribasiga qiziquvchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishi ma'ruza matnlarini tuzish, amaliy mashg'ulot ma'ruzalarini tayyorlash, ilmiy-uslubiy qo'llanmalarni yaratishda asqotishi mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi. Mazkur tadqiqot ishimiz Kirish, uch bob, boblar esa o'z o'rnida yettita paragrafdan iborat. Birinchi bob "Siyosiy matn va siyosiy matn tarjimasi haqida tushuncha" deb nomlanib, mazkur bob siyosiy matnning o'ziga xos xususiyatlari, uning tarjimasi va ushbu tur matn tarjimasini amalga oshirishda e'tiborli jihatlarni ko'rsatishga bag'ishlangan.

Ikkinchi bob "O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari" deb atalib, bob o'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasida siyosiy terminologiya xususiyatlari va siyosiy terminlarning yasalishi, tarjimada leksik birliklarning tanlanishi, frazeologizmlarning tarjimada berilishi bilan bog'liq masalalar ko'rilgan.

Uchinchi bob "O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasi tahlili bo'yicha amaliyot" deb nomlanib, mazkur bob o'zbek tilidagi siyosiy matnlarni vositachi tillar orqali xitoy tiliga tarjima qilishdagi ayrim muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga mazkur bobda amaliy ko'rsatma sifatida o'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy sintagmalarning tarjimalari ham keltirilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishimiz xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan tashkil topgan.

I-BOB. Siyosiy matn tarjimasining umumtilshunoslik masalalari bilan bog'liqligi

I.1. Siyosiy matnning lisoniy xususiyatlari

Siyosiy muhit kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan hamda doimo xoh u, xoh bu shaklda bo'lsin doim uning taraqqiyotiga hamrohlik qiladi. Siyosatshunoslikni o'rganish siyosiy institut va harakatlar, shuningdek siyosatning o'zinida anglashga yo'l boshlaydi. Siyosat va davlatning tabiatini tushunish uchun siyosiy muhit katta ahamiyatga egadir. Jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan siyosiy muhit turli ijtimoiy fanlar – iqtisodiy nazariya, huquq, jamiyatshunoslik, psixologiya va shuningdek tilshunoslar, jumladan tilshunos-tarjimonlar o'ziga diqqatini jalb etadi.

Avvalambor, siyosat so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, aniq va tushunarli izohni O'zbekiston milliy ensiklopediyasidan keltirishni joiz bildik. Mazkur manbada izohlanichicha: “Siyosat — davlatni boshqarish san'ati. Siyosat turli ijtimoiy-siyosiy institutlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqa va guruhlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq. Uning mohiyatini davlat hokimiyati shakllari, uni amalga oshirish va boshqarish tashkil etadi. Siyosat keng ma'noda jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy hayoti, davlat hokimiyati, uning ichki va tashqi faoliyati, siyosiy tashkilotlar va harakatlarning hokimiyatga munosabati, uni boshqarishda siyosiy manfaatlarni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi”¹.

Siyosiy matnlar bizni har tomonlama o'rab turuvchi axborot manbaidir. Biz ro'znoma, jurnal va yangiliklar saytlarini o'qiydiz, televizor ko'ramiz, radio eshitamiz. Ommaviy axborot vositalari har kuni bizning mamlakatimiz va boshqa davlatlarning siyosiy hayotidagi turli xabarlarni yoritadilar. Bizning siyosatchilarimiz nutqini tarjimalarsiz o'zimiz tahlil qila olsak, chet mamlakatlarning siyosat va davlat arboblari bilan esa vaziyat o'zgacha. Ularning

¹ «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» - T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. Kitob 7, – B 606.

so'zlarining asl mohiyatini to'g'ri yetkazib berish uchun avvalambor nutqni o'zbek tili yoki boshqa chet tiliga tarjima qilib olish lozim. Bu esa oson ish emas. Siyosiy tarjima bu eng og'ir tarjima turlaridan biridir.

Siyosiy matnlarga davlat, partiya va jamoat arboblarning nutqlari; xalqaro, hukumat va ijtimoiy tashkilotlar nashrlari; tinchlik uchun kurash, xalqaro ahvolning keskinligini yumshatish, qurollanishni qisqartirish va chegaralash, milliy ozodlik harakatlari, iqtisodiy aloqalarga bag'ishlangan maqolalar va h.k. kiradi.

Siyosiy matnlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, nafaqat mazmunli bir butunlik sifatida, ya'ni nafaqat biror-bir xabar yoki masala to'g'risida axborotni o'zida aks ettiradi, balki yana boshqa funksiyalarni ham bajaradi. Siyosiy matn – bu avvalambor, mazkur masala yuzasidan ma'lum bir nuqtai nazarning ifodasidir. Boshqacha aytganda, ijtimoiy-siyosiy matn tarjimasi auditoriyaga targ'ibot va tashviqotchilik ta'sirini o'tkazish uchun mo'ljallangan.

Siyosiy adabiyot asarlarida sintaktik vositalar faol rol o'ynaydi. Ularga quyidagi xususiyatlar xos:

- a) Uzun murakkab gaplarning mavjud emasligi
- b) Jumla, xat boshi, xat boshi zanjirining aniq tartibda kelishi
- v) Parallelizmlar (shuningdek sinonimlar)ning mavjudligi. Bu bilan uslubning xususiyligi, lekin siqishganlikni ifodalash xususiyatini tan olish kerak bo'ladi.
- g) Mazmuniga ko'ra muhim bo'lgan so'z, so'z birikmalar, gaplarning takrorlanishi.

Janr jihatidan ijtimoiy-siyosiy materiallar turlichadir. Ye.V.Chubukova uni 3 guruhga bo'ladi.

- ✓ rasmiy xujjat materiallari (konstitutsiyalar va qonun chiqarish aktlari, nizomlari, partiyalar nizomi, diplomatik xujjatlar – notalar, deklaratsiyalar, kommyunike, shartnomalar va h.k.)

- ✓ axborot-tavsifiy materiallar (axborot qaydnomalari, ma'lumot beruvchi materiallar, tarixiy tavsiflar, biror-bir hodisa yuzasidan umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot xususiyatiga ega maqolalar, muammoli tematik maqolalar va h.k.)
- ✓ tor ma'nodagi publisistik maqolalar (munozarali maqolalar, pamfletlar, nutqlar va h.k.)

Rasmiy hujjat materiallariga maxsus terminologiyaning ko'pligi, realiyalarning qo'llanilishi, o'ziga xos turg'un nutq iboralari (klishe)ning ishlatilishi xosdir. Axborot tavsifiy materiallar joriy siyosiy hodisalar bilan bog'liq termin, realiya, sitata, leksika va iboralarni o'z ichiga oladi. Publisistik materiallarda (tor ma'noda) erkin so'z va hikmatli gaplar ishlatiladi.

Ijtimoiy-siyosiy matnlarning leksik tarkibiga kelsak, ikki quyi tizim – ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiyani farqlaymiz.

Ijtimoiy-siyosiy terminologiya tushunchasi ostida jamoatchilik tafakkurida ijtimoiy-siyosiy hayotning muayyan tushunchalariga munosib so'z yoki so'z birikmalarini tushunamiz. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya emotsional betaraf va siljimasdir. Ijtimoiy-siyosiy leksika o'ziga mafkuraviy vazifani bajaruvchi emotsional bo'yoqdor leksik birliklarni o'zida qamrab oladi.

Tematik jihatdan ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiya nihoyatda turli. Ijtimoiy-siyosiy mazmundagi matnlar harbiy soha, diplomatiya, saylov tizimi, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, jamoatchilik faoliyati kabilarga aloqador leksika va terminologiyani o'zida qamrab oladi. Shu bilan birga shuni ta'kidlab o'tish joizki, ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiya ko'p jihatdan bir-biriga to'g'ri keladi. Siyosiy terminologiya xususiyatlari haqida II-bobda batafsilroq ko'rib chiqamiz.

I.2. Siyosiy matn tarjimasi va uni amalga oshirishda e'tiborli jihatlar

O'zbek tarjimashunosi Qudrat Musayev tarjimaga lingvistik nuqtai nazaridan yondoshib, quyidagicha ta'rif beradi: "Insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni), uning shakl va mazmun birligini saklagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyat mansub bo'lgan til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda (matn) tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi. Shu yo'l bilan asliyat va tarjima tillari matnlarining mazmuniy-uslubiy adekvatligi yuzaga keltiriladi"².

Siyosiy tarjima – bu maxsus tarjima janrlaridan biridir. Bir tomondan siyosatdonning va siyosatning tili maksimal darajada vazmin va sipo bo'lishi kerak. Siyosiy nutq vaziyatga baho berishda ob'ektivlikni hamisha talab qiladi. Siyosatchi esa doim o'zining haqligi va o'z pozitsiyasining to'g'riligiga maqsadli auditoriyani ishontirishga harakat qiladi.

Hozirda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida tarjimaning mazkur turi kamtarinona o'ringa ega, ammo yo'qolib ketmagan. Bu singari tarjimalar hajmi to'g'risida so'zlasak, axborot to'liqlini, shuningdek tarjima axborotlarining ham umumiy hajmi o'sganligi sababli siyosiy tarjima hajmi ham anchagina o'sdi. Zamonaviy shart-sharoitlarda siyosiy matnlar tarjimasi targ'ibot vositasi va siyosiy kurash quroli sifatida o'ziga hos mazmunga ega bo'ladi. Adekvatlikka erishish yo'lida tarjimaning bu turi ham badiiy, ham maxsus tarjima xususiyatlariga ega. Ijtimoiy-siyosiy materiallar stilistik va janr jihatidan nihoyatda xilma-xildir.

Tarjima faoliyatining ko'pgina turlariga xos bo'lgani singari ijtimoiy-siyosiy tarjimaga ham umuman nomutanosib bo'lgan talablar qo'yiladi: u yuqori darajada tezkor va maksimal darajada aniq va siyosiy jihatdan to'g'ri bo'lishi lozim.

² Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari: Darslik-T.:O'zbekiston Respublikasi FA «Fan» nashriyoti, 2005. – B 8.

Siyosiy matnlarni tarjima qiluvchi tarjimon birinchi navbatda mos leksikani mukammal egallagan bo'lishi lozim.

Shuni ko'rsatib o'tish joizki, har bir davlatda u yoki bu jarayonni ifodalovchi o'ziga xos atamalar qo'llanilishi mumkin. Bu esa o'z o'rnida siyosiy matnlarni tarjima qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Tarjima qilinayotgan matning mohiyatini ifodalab bera olish uchun siyosiy tarjimani amalga oshirish chog'ida boshqa mamlakat hayotining o'ziga xos xususiyatlari haqida ham, undagi siyosiy vaziyatlar, aholining kayfiyati va ruhiyati haqida va uning hayotidagi boshqa jabha masalalari to'g'risida ham keng ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Siyosiy tarjima - bu faqatgina iboralarni so'zma-so'z shakllantirish emas, balki bu yana boshqa davlatning madaniy an'analarini anglash hamdir.

Bundan tashqari tarjimon jummalarni to'g'ri tuza olishi, so'z tartibiga amal qilishi lozim. Uning tarjimasi o'qish uchun oson va oddiy xalq uchun tushunarli bo'lishi lozim. Eslatib o'tish kerakki, siyosiy matn tarjimasi betaraf (haqqoniy) tarjimon tomonidan amalga oshirilishi darkor. Shunday hollar bo'ladiki, ro'znomada muallifning ayrim bir chet ellik yuqori mansabdagi shaxslariga nisbatan yaqqol salbiy munosabati ifodalangan maqolalar chop etiladi. Mazkur maqolaning buyurtmaga asosan bajarilganligi sezilib qoladi va bu kabi axborot manbalariga murojaat qilish istagi yo'qoladi. Xabarni ob'ektiv yondoshgan holda yoritish uchun, tarjimon mazkur vaziyat haqida o'zining fikrini bermasligi yoki ongli ravishda qaysidir faktni boshqalari orasidan ajratib ko'rsatmasligi lozim.

Hozirgi vaqtda siyosiy tarjima ko'pincha jurnalistikada foydalaniladi. Yaqin davlatlarning ham, shuningdek uzoq chet mamlakatlarining ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotidagi muhim xabarlarining yoritilishi biz uchun allaqachon odatiy tusga kirib bo'lgan. Bunday axborotlarni tezkor ravishda va aniq, siyosiy jihatdan to'g'ri tarjima qilish lozim.

Siyosiy tarjimani amalga oshirishda tajribali tarjimon doim matndagi yashirin ikki taraflamalikni hisobga oladi. Bir tomondan u amaliy, yordamchi

mohiyati unga aniq bo'lgan shtamplar va an'anaviy iboralar bilan ish olib boradi. Ikkinchi tomondan siyosatchi yuborayotgan xabar va mazkur xabar birinchi navbatda haqiqatda kimga yo'nalganligini aniq anglab olish zaruriyati bilan ishlaydi. Siyosiy kontekst va diplomatik tilga xos nozikliklar borasidagi bilimi tarjimonga xabarning barcha urg'u berilgan qirralarini aniq yetkazib berishi va zarur bo'lsa matnga ana shu emotsional-ifodali ohangni kiritishiga imkon beradi.

Bundan tashqari shuni ko'rsatib o'tish joizki, so'nggi paytda turli tillarga alohida leksik birliklar yoki terminlarning emas, balki butun bir boshli so'z birikmalari, aniqrog'i frazeologizmlarning faol kirib borish jarayoni kuzatilmoqda. Ko'pgina tillar chet tilidan o'zlashgan frazeologizmlarga boy. Misol tariqasida, xitoy tiliga ham, o'zbek tiliga ham kirib borgan siyosiy diskursdagi ayrim birikmalarni ko'rsatamiz.

Sariq matbuot —— 黄色刊物 *huangse kanwu*

Siyosiy oshxona —— 政治厨房 *zhengzhi chufang*

Beshinchi kolonna —— 第五纵队 *di wu zongdui*

Yashil dunyo —— 绿色世界 *luse shijie*

Rasmiylashtirish va qabul qilishga ko'ra ijtimoiy-siyosiy yoki umumiy tarjima ko'rib yozma (yozma matnning yozma tarjimasi), ko'rib og'zaki (yozma matnning og'zaki tarjimasi), tinglab og'zaki tarjima va tinglab yozma tarjima.

Tarjimaning bunday turlari ustida ishlashda ko'rib yozma tarjimadan boshlash maqsadga muvofiq. Keyin esa tayyorgarlik bilan yoki tayyorgarliksiz ko'rib og'zaki tarjimaga, eshitib og'zaki tarjimaga o'tish kerak. Bu bilan ikkitaraf lama, birtaraf lama tarjima, xat boshi jumlati, izchil tarjima va qaydli tarjima ustida mashq qilib hamda ta'limning texnik vositalarini jalb qilgan holda rasmiylashtirish va qabul qilishga ko'ra tarjimaning to'rtinchi turi – chiqish, bayonot, xabarlarni eshitib yozma tarjimasiga o'tgan ma'qul.

Rasmiy-ishchi xujjatlar birinchidan, mantiqiyliги va bayon etish ohangining rasmiyлиги, bir oz tantanavor uslubi bilan farqlanadi. Ikkinchidan, ularda ma'lum siyosiy-huquqiy ko'rsatmalar berilganлиги tufayli aniq belgilangan huquqiy xarakterga ega bo'lib, fikr buyruq-amriy usulda bayon etiladi. Ko'rsatilgan tipdagi hujjatlar doim ekspertlar tomonidan o'rganib boriladi, nashrda va ilmiy tadqiqotlarda sitata keltiriladi hamda qisman yuridik hususiyatga ega bo'ladi. Shu tufayli tarjimada ushbu tipdagi matnlarning uslubiga ham, atamashunosligiga ham katta e'tibor berish lozim bo'ladi. Ushbu hujjatlarning atamashunosligi o'zining standartlılıgi va qoliplılıgi bilan ajralib turadi. Uni bilmasdan turib tarjimon muvofiq hujjatlar matnining adekvat, rasmiy tarjimasiga erisha olmaydi. 核大国 he daguo so'z birikmasini "yadro mamlakati" yoki "yadro quroliga ega davlat" deb tarjima qilish zinhor befarq emas. Dunyo yuzini ko'rgan ko'pgina hujjat, shuningdek maxsus lug'at va glossariylarda rasmiy mustahkam o'rnini topgan atama va terminologiya iboralari o'zgarmas ko'rinishda matndan matnga o'tib boraveradilar. Tarjimonning u yoki bu sabablarga ko'ra bu turdagi hujjatlar terminologiyasi tarjima amaliyotidan chetlashga urinishi shaxsiy interpretatsiya ahamiyatini behuda kuchaytirishi mumkin. Va materialni bu bilan u yoki bu masala bo'yicha mavjud ta'rif bilan ixtilofga olib kelishi mumkin.

Shuni yodda tutish lozimki, tarjima amaliyotida o'rnashib qolgan xalqaro siyosiy-diplomatik terminologiya bir kunda paydo bo'lmagan, balki bu atamalar ortida u yoki bu bahsli atamalar yuzasidan o'zaro kelishish maqsadida talay vaqt va kuch sarf etgan diplomatlarning yillab, boringki o'n yillab olib borgan shiddatli kurashi turibdi.

Ikkinchi tomondan, agar hujjatning mazmuni, g'oyasi shuni talab etsa, tarjimon yangilikni taklif etishdan qo'rqmaslıgi kerak. Tabiiyki, har bir muayyan vaziyatda u yoki boshqa variantni tanlash kontekstga bog'liq bo'ladi.

Siyosiy matnlarni tarjima qilishda transformatsiya

Transformasiya – (*lot.* transformation – qayta tuzish). Asosiy (yader) sintaktik strukturani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi tur sintaktik struktura hosil qilish³. Mas., aniq konstruksiyaning majhul konstruksiyaga aylantirilishi: 他把好久找不到的那本书买到了。 *Ta ba haojiu zhaobudao de na ben shu maidaole.* — 他买到了好久找不到的那本书。 *Ta maidaole haojiu zhaobudao de nab en shu.* (U uzoq vaqtdan buyon izlayongan ana u kitobini sotib olishga muvaffaq bo'ldi).

Grammatik transformatsiya

Grammatik transformatsiya – bu birinchi navbatda gapni qayta qurish (uning strukturasi o'zgartirish) va ham sintaktik, ham morfologik tartibda turli almashtirishlardir.

O'zbek tili va xitoy tillaridagi grammatik kategoriya va shakllarni qiyoslash jarayonida quyidagi hodisalarni kuzatish mumkin:

- 1) Tillardan birida u yoki bu kategoriyaning mavjud bo'lmashligi;
- 2) Qisman mos kelish;
- 3) To'liq mos kelish.

Grammatik transformatsiyalarga zaruriyat, tabiiyki, birinchi va ikkinchi holatlarda yuzaga keladi.

Muvofiq shakl va konstruksiyalar ma'nosida va qo'llanilishida qisman mos kelish yoki mos kelmaslik ham grammatik transformatsiyani talab etadi. Bu yerga son kategoriyasining qisman mos kelmasligi, majhul nisbat konstruksiyalarining qisman mos kelmasligi, modallilikning to'liq bo'lmagan mos kelishi kabi hodisalarni kiritish mumkin.

Grammatik transformatsiyani ikki turga ajratish mumkin: qayta joylashtirish va almashtirish.

³ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – B 94.

Qayta joylashtirish tarjima transformatsiyasining bir turi bo'lib, bu aslyat matniga nisbatan tarjima matnidagi til unsurlarining joylashuv (ketma-ketlik) tartibini o'zgartirish hisoblanadi. Qayta joylashtirishga uchrashi mumkin bo'lgan unsurlar bu odatda matn qurilishidagi so'z, so'z birikmalari, qo'shma gap qismlari va mustaqil gap.

Almashtirish tarjima transformatsiyasining eng keng tarqalgan va ko'pqirrali turidir. Tarjima jarayonida grammatik birliklar – so'z shakllari, so'z turkumlari, gap bo'laklari, sintaktik munosabat tiplari almashtirilishi mumkin.

Leksik transformatsiya

Har qanday so'z, ya'ni leksik birlik bu tilning lug'at tizimi bo'lagidir. Bu bilan turli tillarda so'z semantik strukturalarining o'ziga xosligi tushuntiriladi. Turli tillarda so'z mazmunida ko'pincha shu til tashuvchilariga xos bo'lgan dunyoni his qilishi o'z ifodasini topgan bir xildagi hodisa yoki tushunchalarning turlicha belgilari ajralib turadi. Bu esa tarjimada qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, xitoy tilidagi 眼红 yanhong so'zi “hasad qilmoq” ma'nosini anglatadi. Aslida mazkur so'zning birinchi komponenti 眼 yan “ko'z”, 红 hong “qizil” demak. O'zbek qarashida ko'zning qizarish bu “jaxli chiqish, g'azabi qaynash” kabilarni anglatadi. Ko'rinib turganidek, bir xildagi xolat ikki xil millat mentalitetida turlicha o'z aksini topar ekan.

Transformatsiya tiplari:

1. Transliteratsiya va transkripsiya

Transliteratsiya va transkripsiya usuli o'zbek tilidagi atoqli otlar, geografik nomlar, kema, samolyot, ro'znoma, jurnal, firma nomlarini xitoy tiliga tarjima qilishda qo'llaniladi.

“Transliteratsiya usulidan foydalanishning asosiy sababi aslyatda qo'llanilgan milliy xususiyatli lisoniy vositalarning tarjima tilida mavjud bo'lmaganligi tufayli aslyatning milliy xususiyatini tarjima gili soxiblariga xos

xususiyat bilan almashtirib qo'yish yoki tarjimani umuman bunday xususiyatdan mahrum etish kabi xolatlarga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir. Amerika Qo'shma Shtatlari «dollar»ining, ingliz «funt sterling»ining, nemis «marka»siyu xind «rupiya»sining, afg'on «afg'oniy»sining transliteratsiya kilinmasdan, o'zbek «so'm»i bilan almashtirib qo'yilishi, AQSh «brendi»si, ingliz «viski»si, nemis «shnapse»sining rus «vodka»si orkali talkin etilishi ingliz boshiga «shlyapa» o'rniga o'zbek «do'ppi»sini, egniga «palto» yoki «plashch» o'rniga «to'n» yoki «yaktak» kiygizib qo'yish bilan baravar⁴.

✚ Ichki ishlar vaziri Zokirjon Almatov va viloyat hokimi Saydulla Begaliyev⁵

内务部部长扎吉尔·阿尔马托夫和州行政长官萨伊杜拉·别加利耶夫
neiwubu buzhang Zajier Aermatuofu he zhouxingzheng zhangguan Sayidula Biejialiyefu

✚ Ular tun bo'yi Andijon viloyati hududining o'zida yoki chegaradan o'tib, Qirg'izistonning O'sh va Jalolobod viloyatlari hududida tarqalib ketgan bo'lishi mumkin⁶.

一夜时间它们可以在安集延州的某个地方隐藏起来，或者通过边境潜入吉尔吉斯斯坦贾拉拉巴德州和奥什州境内。*Yi ye shijian tamen keyi Anjiyan zhou de mou ge defang yincang qilai, huo zhe tongguo bianjing qianru Jierjisisitan Jialalabade zhou he Aoshi zhou jingnei.*

✚ 2004 yil yakunlariga ko'ra “Nasledie” fondi “Uoll strit jornei” tomonidan tayyorlangan hamda mashhur “Vashington tayms” gazetasida chop etilgan Iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha O'zbekistonning jahondagi sezilarli taraqqiyotga erishgan o'nta davlat qatoriga kiritilgani bizga katta mamnuniyat bag'ishlaydi⁷.

⁴ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – B 3.

⁵ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 315

⁶ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. - B 325

⁷ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. - B 209

我们感到非常满意，根据“遗产”基金会及“华尔街杂志”做出并在著名的“华盛顿时报”上发表的自由经济指数 2004 年总结报告，乌兹别克斯坦跻身世界 10 个进步幅度最大国家的行列。 *Women gandao feichang manyi, genju “Yichan” jijinhui ji “Huaer jie zazhi” zuochu bing zai zhuming de “Huashengdun shibao” shang fabiao de ziyou jingji zhishu 2004 nian zongjie baogao, Wuzibiekeshitan jishen shijie 10 ge jinbu fudu zui da guojia de hanglie.*

✚ Irina Bryunero, Belgiyaning “Le soir” gazetasi muhbiri⁸

比利时 “Le Soir” 报记者 I.布鲁涅罗 *Bili shi “Le Soir” baojizhe I.Bulunieluo*

2. Kal’kalash

Kal’kalash – o’zga tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o’z til elementlaridan foydalanib so’z yoki frazeologik birliklar hosil qilish⁹. Ekvivalenti mavjud bo’lmagan leksikani yetkazib berishning bu uslubi o’zbek tilidagi so’z yoki so’z birikmasini qismlarga bo’lib tarjima qilish va kelgusida tarjima qilingan qismlarni birlashtirishdir. Masalan,

Oliy Majlis — 最高议会 *zuigao yihui* (最高 *zuigao* — “oliy”, 议会 *yihui* — “majlis”)

Korrupsiya — 营私舞弊 *yingsi wubi* (营私 *yingsi* – “manfaatni ko’zlamoq”, 舞弊 *wubi* — “suistemol qilmoq”, “qonunga xilof ish tutish”)

3. Almashtirish va uning turlari:

- a) So’z shaklini almashtirish,
- b) So’z turkumlariga mansublikni almashtirish,
- c) Gap bo’laklarini almashtirish,
- d) Gapdagi tarkibiy qismlarni almashtirish.

⁸ Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. – T.: O’zbekiston, 2005. – B 364.

⁹ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug’ati. – T.: O’qituvchi, 1985. – B 41.

“Axborot erkinligini ta’minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o’z fikri va g’oyalari, sodir bo’layotgan voqealarga munosabatini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki to’g’risida so’z yuritib bo’lmaydi, degan tushuncha jamoatchiligimiz o’rtasida tobora kuchayib va mustahkamlanib bormoqda”¹⁰.

我们的舆论界这样一种观念在增强：不保证新闻报道的自由，不把大众媒体变成人们能自由表达自己的观点和思想、表达对所发生的事件的立场和态度的舞台，就谈不上深化民主政治和增强居民的政治积极性，就谈不上居民实际参与国家的政治和社会生活。 *Women de yulunjie zheyang yi zhong guannian zai zengqiang: bu baozheng xinwen baodao de ziyou, bu ba dazhong meiti biancheng renmen neng ziyou biaoda ziji de guandian he sixiang , biaoda dui suo fasheng de shijian de lichang he taidu de wutai, jiu tanbushang shenhua minzhu zhengzhi he zengqiang jumin de zhengzhi jijixing, jiu tanbushang jumin shiji canyu guojia de zhengzhi he shehui shenghuo.*

Ushbu ko’rsatilgan jumlada o’zbek tilidagi matn so’nggida keltirilgan rema xitoy tilidagi tarjima matnida matnning boshida keltirilib u tema vazifasini o’tagan.

4. Qo’shish – tarjimada asliyat leksik birligi ma’nosini tiklash uchun so’z qo’shish.

✚ O’tgan yilning dekabr oyida O’zbekistonda bo’lgan Xalqaro valyuta fondi missiyasi 2004 yilda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo’lidagi sa’y-harakatlarimizga yuqori baho berdi¹¹.

2004年12月来乌兹别克斯坦考察的国际货币基金委员会的委员们，对我们2004年进行的经济改革予以了高度评价。*2004 nian 12 yue lai Wuzibiekeshitan*

¹⁰ Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. – T.: O’zbekiston, 2005. – B 191.

¹¹ Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. – T.: O’zbekiston, 2005. – B 208.

*kaocha de Guoji huobi jijin weiyuanhui deweyuanmen, dui women 2004 nian jinxing de jingji gaige yuyi le gaodu pingjia*¹².

5. Tushirib qoldirish – asliyat tilidagi soʻzni tarjima tiliga tarjima qilayotganda tushirib qoldirish.

✚ Oʻzbekistonda ham shaxsni ushlab turish, hibsga olish, shuningdek, boshqa prosessual majburiy choralarini qoʻllash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga oʻtkazish kerak¹³.

在乌兹别克斯坦也必须把下发批准拘押、逮捕以及使用其他强制措施命令的权利转归法院。 *Zai Wuzibiekistan ye bixu ba xiafa pizhun juya, daibu yiji shiyong qita qiangzhi cuoshi mingling de quanli zhuangui fayuan*¹⁴.

Mazkur jumlada «shaxsni» va «prosessual» soʻzlari tushirib qoldirilgan boʻlib, gap sud-huquq tizimi sohasida borayotganligi sababli “koʻrilayotgan choralar”ning “prosessual”ligi ravshan. Tarjimada bu soʻzni “诉讼的” *susong de deb* berishimiz ham mumkin. Ushlab turish, hibsga olish kabi harakatlar sud-xuquq tizimida shaxsga nisbatan qoʻllanilishi muqarrarligi tufayli, tarjimada “shaxsni” soʻzini ham tushirib qoldirish mumkin. Har ikkala soʻzni tushirib qoldirsak ham, jumla mazmuni aslo oʻzgarmaydi.

6. Umumiylashtirish – bir tilda juda muayyan mazmunga, boshqa tilda esa umumiy mazmunga ega soʻz-realiyalarni qoʻllash uchun ishlatiladi.

✚ Saylovchilar tashabbuskor guruhlarini tomonidan Qonunchilik palatasiga koʻrsatilgan 54 ta nomzoddan 12 nafar mustaqil deputat saylangani ham alohida eʼtiborga loyiq, deb oʻylayman¹⁵.

¹²伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。-北京：时事出版社，2006年。第26页。

¹³ Karimov I.A. Oʻzbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram boʻlmaydi. – T.: Oʻzbekiston, 2005. – B 187.

¹⁴ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。-北京：时事出版社，2006年。第11页。

¹⁵ Karimov I.A. Oʻzbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram boʻlmaydi. – T.: Oʻzbekiston, 2005. – B 175.

我认为，居民中有主动精神的团体推举的 54 名候选人中，有 12 名独立的代表进入立法院这样一个事实也值得人们认真关注。 *Wo renwei, jumin zhong you zhudong jingshende tuanti tuijude 54 ming houxiuanren zhong, you 12 ming duli de daibiao jinru lifayuan zheyang de yi ge shishi ye zhide renmen renzhen guanzhu¹⁶.*

7. Anatomik tarjima – asliyat tili strukturasi tarjima tilining anatomic strukturasi muvofiq tarjima qilinadigan transformatsiya.

Tinchlikni saqlang! —— 禁止喧哗 *jinzhi xuanhua* (so'zma-so'z 禁止 *jinzhi* – ta'qiqlamoq, 喧哗 *xuanhua* – shovqin solmoq)

8. Tasviriy tarjima.

Tarjimaning bu turi so'z yoki so'z birikmasining kengaytirilgan izohini ko'zda tutadi. Mazkur turdan o'zbek tilidagi so'zning ifodalagan realiyalari xitoy tilida mavjud bo'lmagan holatlarda ishlatiladi.

Sarbon – 驮运队的首长 *tuoyundui de shouzhang* (so'zma-so'z bo'ktargi, yuk tashuvchi tizilib yuradigan hayvonlar guruhi yetakchisi)

Mazkur bobimizga xulosa o'rnida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Janr jihatidan ijtimoiy-siyosiy materiallar 3 guruhga bo'linadi.

- rasmiy xujjat materiallari
- axborot-tavsifiy materiallar
- tor ma'nodagi publisistik maqolalar

- Ijtimoiy-siyosiy terminologiya – bu ostida jamoatchilik tafakkurida ijtimoiy-siyosiy hayotning muayyan tushunchalariga munosib so'z yoki so'z birikmalardir. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya emotsional betaraf va siljimas bo'lsa, ijtimoiy-siyosiy leksika mafkuraviy vazifani bajaruvchi emotsional bo'yoqdor leksik birliklarni o'zida qamrab oladi.

¹⁶伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第2页。

- Siyosiy tarjima – bu siyosiy matnni asliyat tilidan tarjima tiliga og'irish bo'lib, bu jarayonda siyosatchi tarjimondan siyosiy matnga xolis yondoshish, o'z fikri, pozitsiyasining ta'sirini o'tkazmaslik, keng ensiklopedik va zamonaviy informatsion bilimlarga ega bo'lishi talab qilinadi.

- Siyosiy tarjima bu faqatgina iboralarni so'zma-so'z shakllantirish emas, balki bu yana boshqa davlatning madaniy an'analarini anglash hamdir.

- Siyosiy matn tarjimasi tarjima nazariyasi qonuniyatlariga to'la bo'sunib, turli tarjimonlik faoliyati usullari, jumladan, transformatsiya, transliteratsiya, transkripsiya, kal'kalash, almashtirish, umumiyashtirish, anatomic tarjima, tasviriy tarjima kabi usullardan keng foydalanadi.

II-BOB. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasining nazariy masalalari

II.1. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasini va siyosiy terminologiya

Termin (lot. terminus – chek, chegara, chegara belgisi) – fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatish doirasini shu sohalar bilan chegaralangan soʻz yoki soʻz birikmasi. Terminlar bir maʼnoli boʻlishi, ekspressiya emotsionallikka ega emasligi kabi belgilari bilan ham umumiy soʻzlardan farqlanadi¹⁷.

Siyosiy terminologiya asosan roʻznoma-axborot uslubiga xos. Ijtimoiy-siyosiy sohada terminologik tizimning tartiblilik va jiddiylik oz kuzatiladi. Roʻznoma-axborot materiallarida koʻpmaʼnoli terminlar, termin-sinonimlar, qisqartma termin va nomlar koʻp uchraydi. Siyosiy xitoy terminologiyasidagi 法律 *falü* termini ham “qonunchilik”, ham “huquqiy” maʼnolarida ishlatiladi.

Siyosiy terminlarning klassifikatsiyasi quyidagicha:

1. Partiyalar nomi:

“Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi” — 乌兹别克斯坦人民民主党
Wuzibiekistan renmin minzhu dang

“Fidokorlar” partiyasi — 祖国进步党 *Zuguo jinbu dang*

“Adolat” partiyasi — 公正社会民主党 *Gongzheng shehui minzhu dang*

“Milliy tiklanish” partiyasi — 民族复兴党 *Minzu fuxing dang*

Kommunistik partiya – 共产党 *Gongchan dang*

Liberal partiya — 自由党 *Ziyou dang*

2. Ittifoq, birlashma va tuzilma nomlari:

¹⁷ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lugʻati. – T.: Oʻqituvchi, 1985. – B 88.

Shanghai hamkorlik tashkiloti - 上海合作组织 *Shanghai hezuo zuzhi*

Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti - 中亚合作组织 *Zhongya hezuo zuzhi*

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi - 独联体 *Dulianti*

Birlashgan Millatlar Tashkiloti - 联合国 *Lianheguo*

Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti - 欧洲如欧安组织 *Ouzhou ru Ou'an zuzhi*

Yevropa Ittifoqi- 欧盟 *Oumeng*

NATO - 北约 *Beiyue* (北大西洋公约主组织 *Beida xiyang gongyuezhuzhi*)

Xalqaro valyuta fondi – 国际货币基金组织 *Guoji huobi jijin zuzhi*

Jahon banki – 世界银行 *Shijie yinhang*

Osiyo taraqqiyot banki – 亚洲开发银行 *Yazhou kaifa yinhang*

Islom taraqqiyot banki - 伊斯兰开发银行 *Yisilan kaifa yinhang*

Xalqaro uyushma —— 国际社会 *Guoji shehui*

3. Siyosiy lavozim nomlari:

President —— 总统 *zongtong*

Tashqi ishlar vaziri —— 外交部长 *waijiao buzhang*; 外长 *waizhang*

Diplomat —— 外交官 *waijiaoguan*

4. Siyosiy qo'mitalar nomlari:

Davlat departamenti —— 国务院 *guowuyuan*

Davlat xavfsizlik qo'mitasi —— 国安委员会 *guoan weiyuanhui*

Xavfsizlik kengashi —— 国安全理事会 *guoan quanli shihui*

5. Jamiyat uchun falokatli faoliyat, harakat nomlari:

Terrorizm – 恐怖主义 *kongbuzhuyi*

Aqidaparastlik – 原教旨主义 *yuanjiaozhizhuyi*

Narkomaniya – 吸毒 *xidu*

Ekstremizm – 极端主义 *jiduanzhuyi*

Korrupsiya – 营私舞弊 *yingsiwubi*

Narkoagressiya - 毒品走私 *dupin zousi*

Rasmiy ishchi hujjatlarning atamashunosligi o'zining standartliligi va qolipliligi bilan ajralib turadi. Uni bilmasdan turib tarjimon muvofiq hujjatlar matnining adekvat, rasmiy tarjimasiga erisha olmaydi.

Rasmiy qog'ozlar matnlari odatda preambula – “boshlama”lar bilan boshlanadi. Ibora va ular tarjimasining muqarrar takrorlanib turishligini hisobga olgan holda kontekstdan qat'iy nazar har safar tarjima tilida bir ekvivalentga ega boshlamalarning ro'yhatini tuzib olish ham mumkin. Masalan,

Hech shubhasiz – 毫无疑问 *haowuyiwen*

Hech mubolag'asiz aytilish mumkinki —— 可以毫无夸张地说 *keyi haowu kuazhang de shuo*

Shuni tan olish kerakki – 应当承认 *yingdang chengren*

Shu munosabat bilan —— 鉴于此 *jian yuci*

Alohida ta'kidlab —— 着重指出 *zhuozhong zhichu*

Shuni e'tiborga olib —— 注意到 *zhuyidao*

Agar qo'llanish nuqtai nazaridan alohida leksik birliklarni tahlil qilib chiqsak, asliyatdagi deyarli barcha iboralar yo ekvivalentiga ega bo'ladi, yoki

tarjima tilida umumma'lum bo'lgan doimiy muqobillari bo'ladi. Solishtirib ko'raylik,

Kurash timsoli bo'lmoq —— 作为斗争象征 *zuwei douzheng xiangzheng*

So'z va harakat erkinligi —— 言论行动自由 *yanlun xingdong ziyou*

Ozodlik uchun kurash —— 为自由而斗争 *wei ziyou er douzheng*

Butun dunyoda —— 在全世界 *zai quan shijie*

Katta hissa qo'shmoq —— 作出很大的贡献 *zuochu hen da de gongxian*

Ehtirom ila xotirlamoq —— 尊敬地追念 *zunjing de zhuinian*

Siyosiy qarash —— 政治观点 *zhengzhi guandian*

Irqiyl diskriminatsiya (kamsitish) —— 种族歧视 *zhongzu qishi*

Siyosiy va moddiy yordam —— 政治与物质上的支持 *zhengzhi yu wuzhi shang de zhichi*

Doimiy muqobillar sifatida siyosiy tashkilotlarning nomlari namoyon bo'ladi. Masalan,

Atom energiyasi komissiyasi —— 原子能委员会 *yuanzineng weiyuanhui*

Qurolsizlantirish qo'mitasi majlisi —— 裁军委员会会议 *caijun weiyuanhui huiyi*

Siyosiy matnlarni o'zbek tilidan xitoy tiliga tarjima qilishda ma'lum bir siyosiy terminlarning yasalishiga ham alohida e'tibor berilsa, boshqa shu tipdagi so'zlarni ham lug'atdan izlamay turib ham anglab olish mumkin. Masalan, hozirda davlatimiz siyosatida ustuvor taraqqiyot mezonlarini xitoy tilidagi muqobillarini ko'rib chiqsak demokratlashtirish, modernizatsiya (zamonaviylashtirish), globalashtirish kabi so'zlar majhul nisbatning *-lashtirish* so'z shakli yasovchi qo'shimchasi bilan yasalgan. Mazkur qo'shimcha xitoy tilidagi 化 *hua*

qo'shimchasiga mos keladi. Va shu tariqa, biz tarjimonlar bu so'zlar negizining xitoy tilidagi ma'nosini bilgan holda 化 *hua* qo'shimchasini qo'shish bilan

民主化 *minzhuhua* – *demokratlashtirish*,

现代化 *xiandaihua* – *modernizatsiya*,

全球化 *quanqiuhua* – *globallashtirish*,

意识形态化 *yishixingtaihua* – mafkuralashtirish so'zlarini hosil qilamiz.

Yana shu usulda yasaluvchi so'zlarni ko'rib chiqsak:

♠ Erkinlik 自主 + 性 = 自主性 *zizhuxing*

Mustaqillik 独立 + 性 = 独立性 *dulixing*

“Pishib yetilganlik” 成熟 + 性 = 成熟性 *chengshuxing*

Bosqichma-bosqichlilik 阶段 + 性 = 阶段性 *jieduanxing*

Faollik 积极 + 性 = 积极性 *jijixing*

♠ Pragmatizm 实用 + 主义 = 实用主义 *shiyongzhuyi*

Ob'ektivizm 客观 + 主义 = 客观主义 *keguanzhuyi*

Terrorizm 恐怖 + 主义 = 恐怖主义 *kongbuzhuyi*

Ekstremizm 极端 + 主义 = 极端主义 *jiduanzhuyi*

Kapitalizm 资本 + 主义 = 资本主义 *zibenzhuyi*

Separatizm 分离 + 主义 = 分离主义 *fenlizhuyi*

Siyosiy terminologiya haqida gapiradigan bo'lsak, xitoy tilida siyosiy terminlarning yasalishi odatda chet tilidan o'zlashgan so'zlarning ma'nan tarjima qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu sababli ko'pincha tarjimonga mazkur

so'zlarni yodda saqlab qolish, yoki bo'lmasa hech iloji bo'lmaganda so'zni ma'no jihatdan aniqlashga urinib ko'rib tarjima qilishning imkoni mavjud. Masalan,

Bugun men Qonunchilik palatasi va Senatning birinchi qo'shma majlisida so'zga chiqar ekanman, asosiy maqsadim – jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilashning konsepsiyasini, shuningdek, mamlakatimizni 2005 yil va kelgusi davrda modernizatsiya va isloh etish bo'yicha oldimizga qo'yiladigan asosiy vazifalarni qisqacha bayon etishdir¹⁸.

今天在立法院和参议院的第一次联席会议上演说，我想向你们简要地阐述民主化和社会革新的最重要的构想，以及 2005 年和今后很长一段时期国家改革和现代化的主要任务。*Jintian zai lifayuan he canyiyuan de di yi ci lianxi huiyi shang yanshuo, wo xiang xiang nimen jianyao de chanshu minzhuhua he shehui gexin de zuizhongyao de gouxiang, yiji 2005 nian he jinhou hen chang yi duan shiqi guojia gaige he xiandaihua de zhuyao renwu.*

Bu jumlada ishtirok etgan “Qonunchilik palatasi” so'zi 立法 *lifa* – “qonun o'rnatish” va 院 *yuan* – “palata” so'zlaridan (立法院); “Senat” so'zi 参议 *canyi* – “muhokamada ishtirok etish”, “maslahatchi, senator” va 院 *yuan* – “palata” so'zlaridan (参议院); “demokratlashtirish” so'zi 民 *min* – “xalq”, 主 *zhu* – “boshqaruv” va 化 *hua* – “-lashtirish” morfemalaridan (民主化); “modernizatsiya” so'zi 现代 *xiandai* – “zamonaviy” so'zi va 化 *hua* – “-lashtirish” morfemalaridan (现代化) tashkil topgan. Ko'rib turganimizdek, xitoy tilining o'ziga xosligi ham shundan iboratki, so'zlarning alohida tarkibiy qismlari ma'nosiga ko'ra butun bir so'zning tarjimasini anglab olish mumkin.

Har bir mamlakat o'zining saylov tizimiga ega bo'lib, lekin saylov kampaniyalarining texnologiyalari, maqsad va vazifalarining ko'pgina umumiy

¹⁸ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 176.

jihatlari mavjud. Saylov tematikali matnlar tarjimasida asliyati tili va tarjima tili mamlakati saylov tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

saylov – 选举 *xuanju*, 选定 *xuanding*

saylovchi – 选举人 *xuanjuren*

saylov kampaniyasi – 选举运动 *xuanju yundong*

ovoz berish – 投票 *toupiao*, 表决 *biaojue*;

ovoz – 嗓子 *sangzi*, 声音 *shengyin*; 音调 *yindiao*; 意见 *yijian*, 主张 *zhuzhang*; 票 *piao*

O'zbek tilidagi siyosiy matnni xitoy tiliga tarjima qilishda leksik birliklarning tanlanishidagi muhim jihatlardan yana biri uning yasali shaklidir. Turk tilida kishilar orasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi *toplum (jamiyat)* terminining arabcha *cemiyet* muqobili ham mavjud bo'lib, turkcha yozma va og'zaki nutqning turli vazifadosh uslublarida keng qo'llaniladi. *Cemiyet* termini o'zagidan arab tilida *ictimai* sifati yasalgan. *İctimai* sifatining fransuz tilidan o'zlashgan muqobili hisoblangan *sosyal* so'zi turkcha nutqda *ictimai* sifatidan ko'ra faolroq qo'llanadi¹⁹. Turkolog tadqiqotchilarimizning jamiyatshunoslik sohasidagi terminlar tadqiqoti borasidagi xulosalari bizning o'zbek tilimizdagi "jamiyat", "ijtimoiy", "sosial" so'zlarining etimologik kelib chiqishi xususidagi masalalarni oydinlashtiradi. Lekin yuqorida (turkiy tillarda) turli vazifadosh uslublarda turli ijtimoiy terminlarning qo'llanishi turlichadir degan fikrni xitoy tiliga tadbiiq etadigan bo'lsak, xitoy tilida "jamiyat", "jamoatchilik", "ijtimoiy", "sosial" singari jamiyatshunoslik terminlari birgina o'zgarma "社会" *shehui* so'zi bilan ifodalanadi. Masalan, jamiyatshunoslik sohasi bilan bog'liq quyidagi so'z birikmalarini ko'rib chiqsak:

¹⁹ Hamidov X., Azzamova N., Turkcha ijtimoiy-falsafiy va siyosiy terminlar tarjimasiga doir, Tarjima masalalari, ilmiy maqolalar to'plami. – T.: , 2012. – B 132

Ijtimoiy va sosial guruhlar – 社会团体 *shehui tuanti*,

Jamoat tashkilotlari – 社会组织 *shehui zuzhe*,

Jamoatchilik nazorati – 社会监督 *shehui jiandu*,

Ochiq jamiyat modellari – 开放社会模式 *kaifang shehui moshi* va hokazolar.

Bu yerda barcha o'rinlarda bir “社会” *shehui* so'zi qo'llangan bo'lib, mazkur so'zning shakli o'zgarmligining boisi, xitoy tili aslida amorf tillarga oidligiga borib taqaladi. Amorf tillar affikslarga ega bo'lmagan, so'zlar orasidagi grammatik aloqalar bitishuv yo'li bilan yoki yordamchi so'zlar vositasida ifodalanadigan tillardir²⁰. Shunday ekan xitoy tilidagi so'zlar turkiy tillardagi o'zlashma so'zlar singari fleksiyaga uchramaydi.

Shuni esda tutish lozimki, har bir mamlakatda o'z terminologiyasidan foydalaniladi: the King – 国王 *guowang* (Buyuk Britaniyada), the Queen – 王后 *wanghou* (Buyuk Britaniyada), the Monarch – 君主 *junzhu*, Kreml – 克里姆林宫 *kelimulingong*, Qizil Maydon – 红场 *hongchang*. Tashqi ishlar vaziri – Foreign Secretary (Angliyada), Secretary of State (AQShda (DS 506))²¹, Foreign Minister (Rossiyada), 外交部长 *waijiaobuzhang* yoki 外长 *waizhang* (XXRda).

Ona tilidan chet tiliga siyosiy matnlar tarjima aynan shu jihatlarga jiddiy e'tibor qaratish kerakki, tarjimon o'z vatani hamda tarjima tili mamlakatining siyosiy hamda davlat tizimi, siyosiy lavozim antroponimikasi, faoliyat yuritayotgan partiyalar maqsad-vazifalari, huquqiy, adliya tizimi kabi siyosiy hayotidan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shu tufayli mazkur ishimiz o'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matn tarjimasiga mavzusiga bag'ishlanganligi uchun

²⁰ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – B 15.

²¹ Дипломатический словарь.(1-том). – М.: Государственное издательство политической литературы, 1948. – С 504.

O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi siyosiy tizim o'rtasidagi tafovut va mutanosiblikni ko'rsatib o'tish joiz deb o'ylaymiz` 1.

Avvalambor so'zni XXRning davlat organlari tizimidan boshlasak,

davlat organlari hukumati bu Butunxitoy Xalq vakillari Yig'ini (中华人民共和国全国人民代表大会 *Zhonghua renmin gongheguo quanguo renmin daibiao dahui*) hamda turli darajadagi mahalliy Xalq vakillari Yig'ini (地方人民代表大会 *Difang renmin daibiao dahui*);

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi (中华人民共和国主席 *Zhonghua renmin gongheguo zhuxi*);

Ma'muriy davlat organlari – Davlat Kengashi (中华人民共和国国务院 *Zhonghua renmin gongheguo guowuyuan*) va turli darajadagi mahalliy xalq hokimiyatlari (地方人民政府 *difang renmin zhengfu*);

Mamlakatning harbiy ishlari yuzasidan boshqaruv organlari – Markaziy Harbiy Kengash (中央军事委员会 *Zhongyang weiyuanhui*);

Davlat sud-huquq organlari – Oliy Xalq Sudi (最高人民法院 *zuigao renmin fayuan*), turli darajadagi mahalliy xalq sudlari (地方人民法院 *difang renmin fayuan*) va maxsus xalq sudlari (特种人民法院 *tezhong renmin fayuan*);

Davlat prokuratura organlari – Oliy Xalq Prokuraturasi (最高人民检察院 *zuigao renmin jianchayuan*), turli darajadagi mahalliy xalq prokuraturalari (地方人民检察院 *difang renmin jianchayuan*) va maxsus xalq prokuraturalari (特种人民检察院 *tezhong renmin jianchayuan*).

Endi esa asosan O'zbekiston Respublikasi siyosiy faoliyatning tayanchi bo'lmish davlat qurilishi bilan bog'liq atamalarning tarjimada berilishini batafsil ko'rib chiqsak.

Ma'lumki, davlat boshqaruvida qonun chiqaruvchi, ijro organlari sud hokimiyati bevosita ishtirok etadi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur paragrafda o'zbek tilidagi davlat boshqaruvi bilan bog'liq atamalarni uch guruhga tasniflab, ularning xitoy tiliga tarjimasini tadqiq etish maqsadga muvofiq:

1. Qonun chiqaruvchi organ bilan bog'liq atamalar
2. Ijro hokimiyati bilan bog'liq atamalar
3. Sud tizimi bilan bog'liq atamalar

Qonun chiqaruvchi organ bilan bog'liq atamalar

O'zbek tili siyosiy atamashunosligining salmoqli qismini qonun chiqaruvchi organlari bilan bog'liq atamalar tashkil etadi. Bizga ma'lumki, xitoy tilidagi "termin"lar monosemantik, ya'ni bir ma'nolilik xususiyatiga ekan. Shunday ekan, ana shu atamashunoslikning xitoy tilidagi ekvivalentlarini aniqlashtirib olsak, siyosiy matn tarjima faoliyatida zarur bo'lgan ko'nikma, malakaga ega bo'lamiz. Bu o'rinda dastlab hokimiyat uchga bo'linishini ko'ramiz:

1. Qonun chiqaruvchi — 立法 *lifa*
2. Ijro etuvchi — 行政 *xingzheng*
3. Sud — 司法 *sifa*

立法 *lifa* atamasi murakkab so'z bo'lib, uning tarkibiy qismlaridan bo'lmish 立 *li* – o'rnatmoq, 法 *fa* qonun demakdir.

法 *fa* morfemasi bilan qonunchilikka oid ko'plab so'zlar yasalab, mazkur morfema quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Voqea-hodisalarning borishida majburiyat va o'zgarmas holatni ta'minlovchi, belgilanganlardan ortiqcha xatti-harakatlarni cheklovchi qoidalar.

2. Qonun.

3. Fan sohalarida: ko'plab tajriba va kuzatuvlardan so'ng ayni shartlardan ayni natijalar kelib chiqishini qayd etuvchi vaziyat.

4. Ijtimoiy hayotda o'z-o'zidan yuzaga kelgan va rioya qilinishi jamiyatda majburiy bo'lgan jamoa tartiblari.

5. Fikrning mantiqiy bir qimmatini bo'lishi uchun amal qilinishi shart bo'lgan asos.

法 *fa* ning yetakchi ma'nosi "qonun"dir. O'zbek tilidagi "qonun" so'zi arabcha so'z bo'lib, "belgilangan va tasdiqlanib, xalqqa e'lon qilingan, mamlakatda yashovchi har fuqaro uchun amal qilinishi kerak bo'lgan qoida" ma'nosiga ega.

Mazkur morfemadan yasalgan 宪法 *xianfa* so'zi, asosiy qonun, ya'ni "konstitutsiya" ma'nosini bildiradi. 宪 *xian* morfemasi asli u ham "asosiy qonun", "qonunlar majmui" degan ma'nolarni anglatadi.

宪法 *xianfa* so'zi bir qancha yuridik atamalarining yasalishida ishtirok etadi. Masalan, 宪法法院 *xianfa fayuan* birikmasi ikki so'zdan iborat bo'lib, "Konstitutsiyaviy sud" ma'nosiga ega. Masalan:

Prezident Respublika Parlamentiga Konstitutsiyaviy Cud mahkamasi bosh sud'yasi va uning a'zolarini taklif etadi – 总统向共和国议会提出宪法法院院长和成员 *Zongtong xiang gongheguo yihui tichu xianfa fayuan yuanzhang he chengyuan*.

O'zbek tilidagi "modda" so'zi arabcha so'z bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega:

1. Hissiyot bilan qabul qilinadigan, bo'linadigan, og'irligi bo'lgan parcha: Tosh, havo moddadir. 2. Qism, unsur, bo'lak. 3. Qonun, shartnoma kabilarga xos

matnlar, har biri alohida hukm chiqargan va ko'pincha raqam bilan belgilangan bo'lim, huquqshunoslik sohasida, demak, modda so'zining aynan shu ma'nosi nazarda tutiladi.

Xitoy tilida esa bu atama “条文” *tiaowen* deb tarjima qilinib, mazkur so'z o'zbek tilidagi atamaningko'rsatilgan birinchi va ikkinchi ma'nolariga ega emas, balki faqat uchinchi, “qonun, shartnoma matnlari” ma'nosida ishlatiladi. So'zni bo'lib tahlil qilsak 条 *tiao* – “punkt”, 文 *wen* – “yozuv”, “matn” ma'nolariga ega.

Masalan:

Qoraqalpog'iston Jumhuriyati Konstitutsiyasida O'zbekiston Konstitutsiyasiga zid keluvchi moddalarning bo'lishi mumkin emas.

卡拉卡尔帕克斯坦共和国的国家宪法不能与乌兹别克斯坦宪法有相抵触的条文 *Kalakaerpakesitan gongheguo de guojia xianfa bu neng yu Wuzibiekeshitan xianfa you xiang dichu de tiaowen.*

Ijro hokimiyati bilan bog'liq atamalar

Ijro hokimiyati bilan bog'liq atamalar o'zbek va xitoy tillari siyosiy atamashunosligining kichik bir qismini tashkil etadi. Bu o'rinda dastlab, hokimiyatning taqsimlanishida muhim o'rin tutuvchi ijro hokimiyati bilan bog'liq muhim atamalarni ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Hokimiyatning taqsimlanishi prinsipiga ko'ra ikkinchi o'rinni ijro hokimiyati egallaydi.

Ijro hokimiyati xitoy tili siyosiy atamashunosligida 行政 *xingzheng* bo'lib, ushbu atama 行 *xing* “shug'ullanmoq”, “amalga oshirmoq” hamda 政 *zheng* “boshqaruv”, “siyosat” so'zlaridan yasalgan bo'lib, qabul qilingan qonunlarga amal qilib boshqaruv bilan shug'ullanish, ya'ni “*ijro etish*” demakdir.

Prezident rahbarligida Respublika Vazirlar Mahkamasining davlat boshqaruvini amalga oshirishda ijro etish vakolati.

总统领导共和国内阁行使国家管理的行政权 *Zongtong lingdao gongheguo neige xingshi guojia guanli de xingzhengquan.*

行政 *xingzheng* atamasi asosida qator atama va ijro bilan bog'liq iboralar yasalgan:

行政机关 *xingzheng jiguan* – Ijroiya kengashi: shirkat yoki kompaniyalardagi qaror qabul qiluvchi va ijro etuvchi organ:

Respublika Ijroiya organini tashkil etish va unga rahbarlik qilish

组成并领导共和国行政权力机关 *zucheng bing lingdao gongheguo xingzheng quanli jiguan*

行政 *xingzheng* atamasi yana “ma'muriy” deb ham tarjima qilinib, ushbu so'z bilan birikkan so'z birikmalarini ko'rib chiqsak,

Ma'muriy ish — 行政工作 *xingzheng gongzuo*

Ma'muriy bo'linish — 行政区划 *xingzheng quhua*

Ma'muriy sud protsessi — 行政诉讼 *xingzheng susong*

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ijro vakolati va mas'uliyati mamlakat prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan Konstitutsiya va qonunlarga binoan amalga oshiriladi.

“Vazir” so'zi qadim tariximizdan mavjud bo'lib kelayotgan siyosiy atamalardan bo'lib, bu so'zni tarjima qilish jarayonida tarjima tilining o'ziga xosligidan kelib chiqib hamda uning milliy koloritini saqlagan holda o'giriladi. Xitoy tiliga bu so'z 部长 *buzhang*, 大臣 *dachen*, 相 *xiang* atamalari bilan ifodalanadi. 相 *xiang* morfemasi “vazir” ma'nosida aslo yakka qo'llanilmaydi, bu morfema o'zidan oldin yana bir morfemani olib yuradi. Masalan,

右相 *youxiang* – ikkinchi vazir (podsho maslahatchisi)

首相 *shouxiang* – bosh vazir

外相 *waixiang* – tashqi ishlar vaziri

Yana shuni aytib o'tish kerakki, 相 *xiang* atamasi tarixiy manbalarda o'z aksini topib, bu tarixiy lavozim nomlanishi hisoblanadi.

大臣 *dachen* atamasiga kelsak, bu termin faqatgina monarxiya tuzumidagi mamlakatlarda faoliyat olib boruvchi vazirlarga nisbatan ishlatiladi.

部长 *buzhang* atamasi zamonaviy so'zlardan hisoblanib, hozirgi siyosiy terminologiyada asosan aynan shu atama ishlatiladi.

国防部长 *guofang buzhang* – Mudofaa vaziri

财政部长 *caizheng buzhang* – Moliya vaziri

外交部长 *waijiao buzhang* – Tashqi ishlar vaziri

内务部长 *neiwu buzhang* – Ichki ishlar vaziri

Bevosita “Vazirlar Mahkamasi” so'ziga kelsak, xitoy tiliga tarjimada bu transliteratsiya usulida ham, kalka olish usulida ham yasalmaydi, balki aynan shu ikki komponentli so'z birikmasiga monand bitta so'z to'g'ri keladi. Bu 内阁 *neige* so'zi bo'lib, 内 *nei* – “ichki”, 阁 *ge* esa – “davlat (ma'muriy) mahkamasi” ma'nolarini ifodalaydi.

“Parlament Vazirlar Mahkamasining taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi byudjeti va uning nazoratini ijro etish haqida qonun chiqaradi”.

议会根据内阁提案通过乌兹别克斯坦共和国的预算并监督其执行 *Yihui genju neige ti'an tongguo Wuzibiekeshitan gongheguo de yusuan bing jiandu zhixing*.

Sud tizimi bilan bog'liq atamalar

Xitoy tilida sud, sud hokimyati, sud organlari ma'nosida 法院 *fayuan*, 法庭 *fating* atamalari qo'llaniladi.

“Sud – odil sudlovning oliy nuqtasi va uning rolini oshirish huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi qonuniy jarayon”.

“法院 是司法审判的最高机关，提高它的作用是法制国家形成的合理过程。 *Fayuan shi sifa shenpan de zui gao jiguan, tigao ta de zuoyong shi fazhi guojia xingcheng de heli guocheng*”.

Lekin sud atamasining “huquqiy jarayon” sifatida keladigan ma'nosini 审判 *shenpan*, 审讯 *shenxun* tarzida tarjima qilamiz.

Sudga bermoq – 交法庭审判 *jiao fating shenpan*

Sud javobgarligiga tortilmoq – 受法庭审判 *shou fating shenpan*

Sud chog'ida – 在开庭时 *zai kaiting shi*

Xalq nomidan, hukm chiqarish vakolatidan foydalanib, qonunga qarshi xatti-harakatlarda yoki muvofiq kelmagan ishlarda qonunni bajaruvchi, adolatni qaror toptiruvchi odam, hakam, ya'ni sudya 法官 *faguan* deb tarjima qilinib, mazkur so'zda 法 *fa* - “qonun”, 官 *guan* – “amaldor” demakdir.

Konstitutsiyaviy sud hakami faqat O'zbekiston Konstitutsiyasiga bo'ysungan holda erkin faoliyat olib boradi. Sudya daxlsizlik huquqiga ega.

宪法法院的法官独立活动，只服从乌兹别克斯坦宪法，法官享有不可侵犯权。 *Xianfa fayuan de faguan duli huodong, zhi fucong Wuzibiekeshitan xianfa, faguan xiangyou bu ke qinfanquan*.

O'zbek tilidagi yana bir siyosiy atamalardan biri “adliya” so'zi huquq va adliya ishlari bilan shug'ullanuvchi davlat muassasalari ma'nosini anglatib, xitoy tiliga 司法 *sifa*, 司法机关 *sifa jiguan* deb tarjima qilinadi .

赦免 *shemian* so'zi "avf", "amnistiya" ma'nolariga ega bo'lib, "avf" so'zi o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan. "Avf" so'zining quyidagi ma'nolari bor:

1. Biror gunohni, biror aybni yoki kamchilikni kechirish. 2. Ma'zur ko'rmoq yoki ko'rishmoq. 3. Vazifasidan ozod qilinmoq.

赦免 *shemian* so'zi 宣布 *xuanbu* fe'li bilan kelganida, 宣布赦免 *xuan bushemian* "amnistiya e'lon qilmoq" ma'nosini bildiradi.

II.2. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlarni tarjimasida leksik birliklarning tanlanishi

Bevosita siyosiy matnlarni o'zbek tilidan xitoy tiliga tarjima qilish masalasiga kelsak, bu jarayon ham ushbu ikki tilning grammatik tizimi, sintaktik qurilishi, leksik birliklari kabi lisoniy bilimlar hamda davlatlarda mavjud siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, moliyaviy, madaniy, ekologik vaziyatlar, ular borasidagi yangi axborotlar to'g'risida doimiy ravishda xabardor bo'lishi singari g'ayrilisoniy bilimlarni talab qiladi. O'zbekiston siyosiy hayoti borasida nafaqat xitoy tiliga, balki boshqa tillarga ham mazmun-mohiyat jihatidan bajarilgan noto'g'ri tarjima, davlatimizga nisbatan noto'g'ri fikr va xulosalarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, muqobili mavjud bo'lmagan milliy o'ziga xos siyosiy terminlarni o'zbek tilidan xitoy tiliga tarjimada to'g'ri, aniq yetkazib berilishi jiddiy oqibatlardan xalos etadi. Siyosiy tarjima faoliyatida polisemantik xususiyatga ega xitoy tilidagi leksik birliklarni tanlash singari vazifalar bilan ish olib borish bir oz murakkab masala. Misol uchun ruscha-xitoycha lug'atlardan "islohot", "isloh etish" so'zining tarjimasini ko'rsak, 变革 *biange*, 改革 *gaige*, 改造 *gaizao*, 革命 *geming*, 革新 *gexin*²² kabi isloh etish mazmuniga ega beshta so'z bilan ifodalanadi. Mazkur so'z biz qo'llamoqchi bo'layotgan vaziyatga muvofiq keladimi yo yo'q, shu tanlov jarayoni bizni boshi berk ko'chaga olib

²² 孙德金. HSK 词汇攻关 (初、中等)。—北京: 北京语言大学出版社, 2003 年. 第 12, 217 页

kiradi. Ushbu so'zlarni ba'zi so'zlar bilan birlashtirib so'z birikmasi yasab bo'lsa, ba'zilari bilan esa buning imkoni yo'q. Masalan, isloh etish mazmuniga ega so'zlarning boshqa so'zlar bilan qo'llana olish yoki qo'llana olmasligi borasida bir nechta misollar ko'rib chiqamiz:

❖ Siyosiy islohot

政治变革 *zhengzhi biange – to'g'ri*

政治改革 *zhengzhi gaige – to'g'ri*

政治改造 *zhengzhi gaizao – xato*

政治革命 *zhengzhi ge ming – to'g'ri*

政治革新 *zhengzhi gexin – xato*

❖ Texnikani isloh etish

技术变革 *jishu biange – xato*

技术改革 *jishu gaige – xato*

技术改造 *jishu gaizao – to'g'ri*

技术革命 *jishu ge ming – to'g'ri*

技术革新 *jishu gexin – to'g'ri*

❖ Xitoy Xalq Respublikasi “ochiq eshiklar” siyosatini olib bormoqda.

中国实行变革开放政策 *Zhongguo shixing biange kaifang zhengci – xato*

中国实行改革开放政策 *Zhongguo shixing gaige kaifang zhengci – to'g'ri*

中国实行改造开放政策 *Zhongguo shixing gaizao kaifang zhengci – xato*

中国实行革命开放政策 *Zhongguo shixing ge ming kaifang zhengci – xato*

中国实行革新开放政策 *Zhongguo shixing gexin kaifang zhengci – xato*

Yuqoridagi soʻzlar isloh etish mazmuniga ega boʻlsada ularning oʻziga xos boʻlgan tub maʼnolari mavjud. 变革 *biange* – oʻzgartirgan holda isloh etish, 改革 *gaige* – islohot faoliyati, 改造 *gaizao* – qayta qurish, 革命 *geming* – inqilob, 革新 *gexin* – yangilash. Mana shu maʼnolaridan kelib chiqqan holda mos soʻzlarni tanlab yoki soʻzlarga muvofiq tarzda qoʻplab soʻz birikmalarini hosil qilish mumkin. Siyosiy matnlardan misol:

Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilgan oʻzgartirishlar mahkumlarning jazoni oʻtash sharoitlarini yaxshiladi²³.

对刑事感化法律的修改，极大地改善了服刑人员的服刑条件。 *Dui xingshi ganhua falu de xiugai, jida de gaishan le fuxing renyuan de fuxing tiaojian.*

Yana bir misol, zarar keltirmoq, putur yetkazmoq soʻzining xitoy tilida 3 ta maʼnodosh soʻzlari 破坏 *pohuai*, 损坏 *sunhuai*, 损害 *sunhai*²⁴ soʻzlari mavjud. Ular ham ayrim soʻzlar bilan birika oladi, ayrimlari bilan esa yoʻq.

❖ Atrof-muhitni zararlantirmoq

破坏环境 *pohuai huanjing* – toʻgʻri

损坏环境 *sunhuai huanjing* – xato

损害环境 *sunhai huanjing* – xato

❖ Manfaatlarga putur yetkazmoq

破坏利益 *pohuai liyi* – xato

损坏利益 *sunhuai liyi* – xato

损害利益 *sunhai liyi* – toʻgʻri

❖ Jamoat mulkiga zarar yetkazmoq

²³ Karimov I.A. Oʻzbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram boʻlmaydi. – T.: Oʻzbekiston, 2005. – B 186.

²⁴ 孙德金. HSK 词汇攻关 (初、中等). – 北京: 北京语言大学出版社, 2003 年. 第 225, 235 页.

破坏公物 *pohuai gongwu – to'g'ri*

损坏公物 *sunhuai gongwu – to'g'ri*

损害公物 *sunhai gongwu – xato*

Siyosat sohasi qonunlarsiz mavjud bo'la olmaydi. Shu o'rinda qonunchilikka aloqador sinonimik qatorni tashkil qiluvchi 法案 *fa'an*, 法令 *faling*, 法律 *falü*, 法制 *fazhi*, 规律 *guilü*²⁵ so'zlar tahlilini amalga oshirsak.

1) “qonun loyihasi” – mamlakatning qonunchilik organi muhokamasiga taqdim etiladigan qonun, qaror masalalaridagi loyiha bo'lib, xitoy tilida 法案 *fa'an* so'zi bilan ifodalanadi. 法 *fa* “qonuniy” va 案 *an* “loyiha” so'zlaridan yasalgan.

2) “farmoyish”, “qaror” – siyosiy hukumat organlarining chiqaradigan farmon, qarorlari hisoblanib, xitoy tilida 法令 *faling* so'zi bilan ifodalanadi. 法 *fa* “qonuniy” va 令 *ling* “buyruq” so'zlaridan yasalgan.

3) “qonun” – mamlakat hokimiyatining oliy qonunchilik organi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan me'yoriy rasmiy hujjatdir. Xitoy tilida 法律 *falü* so'zi bilan ifodalanib, 法 *fa* “qonuniy” va 律 *lü* “qonun, kodeks” so'zlaridan yasalgan. Siyosiy matnlardan misol:

“Ming afsuski, o'zimiz yaxshi qonunlar yaratamiz-u, o'zimiz ularga qat'iy rioya qilmaymiz”²⁶.

非常遗憾的是，我们制订了很好的法律，自己却违反了这些法律。
Feichang yihan de shi, women zhiding le hen hao de falü, ziji que weifan le zhe xie falü.

²⁵ 孙德金. HSK 词汇攻关 (初、中等)。 – 北京：北京语言大学出版社，2003 年. 第 58 页.

²⁶ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 189.

4) “qonunchilik” – qonunlarni qabul qilish, bekor qilishva o’zgartirish bo’yicha davlat hukumati oliy organlarining faoliyati. Xitoy tilida 法制 *fazhi* so’zi bilan ifodalanib, 法 *fa* “qonun” va 制 *zhi* (制度 *zhidu*) “tizim” so’zlaridan yasalgan. Siyosiy matndan misol keltiramiz:

Shuni ta’kidlash lozimki, qonunchilikda odil sudlovni amalga oshirish shakllaridan biri – yarashuv institutining joriy etilishi qonuniylikni mustahkamlashda ijobiy omil bo’ldi²⁷.

在加强法制方面，一个重要的、值得肯定的事实就是调解机制作进行司法审判的形式被纳入了法律之中。Zai jiaqiang *fazhi fangmian*, yi ge zhongyao de, zhide kending de shishi jiu shi tiaojie jizhi zuo jinxing sifa shenpan de xingshi bei naru le falü zhi zhong.

5) “qonuniyat” – hodisalar o’rtasida ob’yektiv zaruriy munosabat, sabab va oqibat o’rtasidagi aloqalar qonuniga muvofiq keluvchi hodisa. Xitoy tilida 规律 *guilü* so’zi bilan ifodalanib, 规 *gui* “tartib” va 律 *lǜ* “qonun, kodeks” so’zlaridan tashkil topgan.

Sinonimik qator hosil qiluvchi yana bir necha so’zlar borki, stilistik jihatdan ularni qo’llashda bir oz tafovutlar mavjud. Masalan, xalq – 百姓 *baixing*, keng xalq ommasi – 大众 *dazhong*, fuqaro – 公民 *gongmin*, aholi – 居民 *jumin*, omma – 群众 *qunzhong*²⁸ so’zlari ma’nan bir-biriga juda yaqin. Mazkur so’zlar ishtirokida siyosiy matnlardan misollar ko’rib chiqsak,

Odamlarning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirish²⁹ – 提高人们的政治和公民积极性 *tigao renmen de zhengzhi he gongmin jixing*

²⁷ Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. – T.: O’zbekiston, 2005.

²⁸ 孙德金. HSK 词汇攻关 (初、中等)。– 北京: 北京语言大学出版社, 2003 年. 第 3 页.

²⁹ Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. – T.: O’zbekiston, 2005. – B 181.

Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish³⁰ – 大众媒体的发展 *dazhong meiti de fazhan*

Aholi o'rtasida o'zining obro'-e'tiborini oshirish³¹ – 扩大自己在居民中间威信 *kuoda ziji zai jumin zhongjian weixin*

Siyosiy matnlar tarjimasida leksik birliklarni tanlash masalalarida yuqorida aytib o'tganimizdek, siyosiy terminologiyada sinonimik qatorlarning tarkibiy qismlaridan to'g'ri foydalanish talab etiladi. Shunday so'zlardan bir qanchasini ko'rib chiqsak.

1) amalga oshirmoq – 进行 *jinxing*, 实行 *shixing*, 执行 *zhixing*, 行使 *xingshi*, 实施 *shishi*. Mazkur so'zlar ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lsada, lekin ma'no bo'yoqlari va o'z to'ldiruvchilari bilan farqlanadi.

a) 进行 *jinxing* so'zi publisistik uslubdagi matnlarda uchraydigan ko'p qo'llaniladigan fe'llardan biri bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga molik harakat yoki jarayonlarni ifodalovchi to'ldiruvchilar bilan ishlatiladi:

进行大选 *jinxing daxuan* – ommaviy saylovlarni o'tkazish;

进行建设 *jinxing jianshe* – (iqtisodiy, madaniy va h.k.) qurilishni olib borish;

进行工作 *jinxing gongzuo* – ish olib borish;

进行讨论 *jinxing taolun* – muhokama olib borish;

进行研究 *jinxing yanjiu* – tadqiqot olib borish/ o'tkazish.

b) 实行 *shixing* fe'lining asl ma'nosi (tadbiq etish) u yoki bu sohada dastur va ko'rsatmalarni amaliy tadbiq etish, amalga oshirish bo'yicha ish-harakatlarni ifodalaydi. Ushbu fe'l uchun eng tipik to'ldiruvchi 政策 *zhengce* “siyosat” so'zi bo'lib, “siyosatni amalga oshirmoq” 实行政策 *shixing zhengce* dir.

³⁰ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005., - B 190.

³¹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. - B 188.

Siyosatni amalga oshirmoq – 实行政策 *shixing zhengce*;

Rejani amalga oshirmoq (hayotga tadbiq etmoq) – 实行计划 *shixing jihua*;

Davlat tizimini o'rnatmoq – 实行制度 *shixing zhidu*.

c) 实施 *shishi* fe'li ma'no jihatdan 实行 *shixing* fe'liga yaqin bo'lib, uning ham tipik to'ldiruvchilaridan biri 政策 *zhengce* so'zidir. Siyosat olib bormoq – 实行政策 *shishi zhengce*.

d) 执行 *zhixing* fe'li 实行 *shixing* fe'lidan shunisi bilan farq qiladiki, 执行 *zhixing* ish-harakatning sub'yekti uchun majburiy hisoblanuvchi yo'l-yo'riq va dasturlarni amalga oshirish haqida gap ketayotganligini ko'rsatadi. Bu yerda aksari hollarda 执行 *zhixing* fe'li muvofiq "majburiy" semantikaga doir so'zlar bilan birikadi.

Siyosat olib bormoq, yo'l tutmoq – 执行政策 *zhixing zhengce*;

Qonunlarni ijro etmoq – 执行法律 *zhixing falu*;

Vazifani bajarmoq – 执行任务 *zhixing renwu*;

Rejani bajarmoq – 执行计划 *zhixing jihua*;

Buyruqni bajarmoq – 执行命令 *zhixing mingling*;

Funksiyalarni bajarmoq – 执行职能 *zhixing zhineng*.

d) 行使 *xingshi* fe'li asosan tarkibida 权 *quan* (huquq) morfemasi mavjud to'ldiruvchilar bilan birikadi.

Veto huquqidan foydalanmoq – 行使否决权 *xingshi foujuequan*;

Hokimiyatini qo'llamoq – 行使权力 *xingshi quanli*;

Vakolatidan foydalanmoq – 行使职权 *xingshi zhiquan*³².

Quyida ot soʻz turkumiga xos “organ, tashkilot” soʻzini olsak, xitoy tilida ikki sinonim soʻz – 机构 *jigou*, 机关 *jiguan* soʻzlari bilan ifodalanadi. Mazkur ikki soʻz maʼno jihatdan oʻxshash boʻlsada, qoʻllanish jihatda bir oz farqlanadi.

机构 *jigou* soʻzi keng maʼnoga ega: organ (tuzilma, apparat); (hukumat, adliya) instituti, tizim. Yaʼni soʻzning oʻzi avvalo butun bir striktura, turli dasajadagi otganlar tizimi haqida soʻz ketayotganligini taʼkidlaydi.

- Parlament davlatning qonunchilik institutidir.

议会为国家立法机构。 *Yihui wei guojia lifa jigou*.

机关 *jiguan* soʻzi maʼmuriy va boshqaruv organi, instansiyasi, tashkilotini anglatadi. Mazkur soʻz birinchi navbatda tashkilot yoki korxonaning muvofiq strukturasidagi darajasini koʻrsatadi. Shuning uchun bunday daraja (asosiy, oliy va h.k. organ)ni yoki uning mansubligini koʻrsatuvchi har qanday birikma tarjimada yoki bayon etishda aynan 机关 *jiguan* soʻzini talab qiladi.

- Mamlakatning vakillik organi va uning prezidenti saylanmoqda.

国家的代表机关和国家元首由选举产生。 *Guojiade daibiao jiguan he guojia yuanshou you xuanju chansheng*.

- Aʼzo davlatlar va shtatlar oʻzining yuridik va hukumat organlariga ega.

各成员国与州也有自己的法律与政府机关。 *Ge chengyuanguo yu zhou ye you zijide falu yu zhengfu jiguan*.

- Parlament parlament tizimiga ega davlatlarda oliy qonunchilik organi hisoblanadi.

³² И.В. Войцехович, А.Ф. Кондрашевский. Китайский язык/Общественно-политический перевод. – М.: Муравей, 2002. – С 60-61.

议会是国家的代议制的最高立法机关。 *Yihui shi guojiade daiyizhide zui gao lifa jiguan.*

- Mamlakatning qonunchilik organi yuqori quyi palatalarga bo'linadi.

国家的立法机关分设上、下两院。 *Guojiade lifa jiguan fenshe shang, xia liang yuan*³³.

Ma'lumki, xitoy tili yozuvi ieroglifik yozuv bo'lib, bir ieroglif bir bo'g'indan iboratligi tufayli chet tillaridagi ko'pgina atoqli otlar xitoy tiliga tarjima qilinayotgandan, oldingi bobda ko'rib chiqqanimizdek, transliteratsiya usuli bilan o'giriladi. Siyosiy atoqli otlar ham bundan mustasno emas. Masalan, o'zbek tilidagi Kengash so'zi 肯加什 *kenjiashi*³⁴ tarzida o'girilgan. Aslida mazkur so'z kishilarning jamlanib maslahat olib boradigan majlisiga nisbatan qo'llanilib buning xitoy tilidagi ekvivalentini topish qiyin emas. Ya'ni bu yerda 会议 *huiyi*, 协商 *xieshang* kabi so'zlarni olishimiz mumkin. Lekin bu o'rinda *kengash* so'zi bosh harf bilan bitilganligi va siyosiy jamolarning nomi bo'lganligi tufayli atoqli ot sifatida olinib, xitoy tiliga ma'nosiga ko'ra tarjima qilinmay balki transliteratsiya usuli orqali o'girilgan.

Shuni ham ko'rsatib o'tish joizki, ma'ruzaning "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi, 2005 yil 28 yanvar"³⁵ qismida xitoy tilidagi tarjimasida atoqli ot bo'lmish Oliy Majlis so'zi ma'no jihatdan tarjima qilinib, o'z milliylik xususiyatini yo'qotgan. Bu so'z xitoy tiliga "最高会议" *zuigao huiyi*³⁶, ya'ni eng yuqori majlis tarzida tarjima qilingan. Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, *Kengash* so'zi ma'nan tarjima qilinmay transliteratsiya orqali o'girilgan ekan, nima uchun Oliy Majlis so'zining

³³ И.В. Войцехович, А.Ф. Кондрашевский. Китайский язык/Общественно-политический перевод. – М.: Муравей, 2002. – С 61-62.

³⁴ 伊斯拉姆 卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。- 第5页。

³⁵ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 222.

³⁶ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第1页。

fonetik kal’ka uslubi yordamida tarjima amalga oshirilgan degan tabiiy savol tug’iladi? Bu o’rinda ham biz “Oliy Majlis” so’zini transliterasiya usuli yordamida 阿里耶·马吉利斯 *Aliye Majlisi* tarzida o’girish variantini ham ko’rib chiqqan ma’qul. Rossiya Federatsiyasi qonunchilik organi Duma ham xitoy tiliga ma’nan 议会 *yihui* deb tarjima qilinmay, balki 杜马 *duma* tarzida o’giriladi.

Yoki bo’lmasa, boshqa variantlarni ham ko’rib chiqsak AQShning parlamenti Kongress (Congress) xitoy tilida 美国国会 *Meiguo guohui*, Germaniya Federativ Respublikasining parlamenti Reyxstag (Reichstag) – 德国国会 *Dequo guohui* deyiladi. Shunday ekan. O’zbekiston Respublikasi parlamenti Oliy Majlisini 乌兹别克斯坦国会 *Wuzibiekistan guohui* deyish ham mumkin.

Parlamentning tuzilish shakli ikki xil ko’rinishga ega: bir palatali va ikki palatali tizim. Mamlakatning Qonunchilik organi yuqori va quyi ikki palataga bo’linmagan hollarda, faqatgina bir palatadan tashkil topib, bir palatali tizim deyiladi. Hozirda bunday tizimdagu davlatlar bir oz kam. Ularning nomlanishi ham turlicha, Daniyada Folketing 议会 *yihui*, Luksemburgda Deputatlar palatasi 众议院 *zhongyiyuan* deyiladi.

Mamlakatning qonunchilik palatasi yuqori va quyi palataga bo’linsa, ikki palatali tizim deyiladi. Bunday tizim dastlab Angliyada yuzaga kelgan, keyinchalik esa boshqa davlatlarga ham keng tarqalgan. Ikki palatali parlamentning ham nomlanishi turlicha. Masalan,

- Yaponiyada Yuqori palata 参议院 *canyiyuan* va Quyi palata 众议院 *zhongyiyuan*;
- Angliyada Lordlar palatasi 贵族院 *guizuyuan* va Deputatlar palatasi 众议院 *zhongyiyuan*;
- Rossiyada Federasiya Soveti 联邦委员会 *lianbang weiyuanhui* va Davlat Dumasi 国家杜马 *guojia дума*;

- Niderlandiyada Birinchi palata 第一院 *di yi yuan* va Ikkinchi palata 第二院 *di er yuan*;
- Fransiyada Respublika Yuqori palatasi 共和国参议院 *gongheguo canyiyuan* va Xalq Soveti 国民议会 *guomin yihui* deb nomlanadi³⁷.

Ko'pgina davlatlarning siyosiy hayotida "parlament", "palata" singari tushunchlar bo'lsada, ko'rib turganimizdek, tarjimondan mazkur tushunchalarni har bir mamlakatga muvofiqlashtirgan holda tarjima qilishi talab etilar ekan. Binobarin buning uchun esa lisoniy hamda g'ayrilisoniy bilimlar, ya'ni birinchi navbatda jamiyatda bo'layotgan hodisalar tufayli tilda ham kechayotgan o'zgarish va yangiliklardan boxabarlikning ahamiyati nihoyatda kattadir.

II.3. Siyosiy matnlarda qo'llanilgan turg'un birikmalarning tarjimada berilishi masalalari

O'zbek siyosatchilari keng qo'llaydigan tamoyil, aqida, naql, maqollar tarjimasiga kelsak, frazeologik iboralar tarjimasida amaliyotda juda ehtiyotkorlik va zehnlilikni talab qiladi.

Frazeologizmlar (maqol, matal va idiomalar)ning ma'nosi kontekst ichida ochiladi. Binobarin, muayyan iboraning ma'nosini ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash lozim. To'g'ri, ikki yoki bir nechta tilda ham shaklan, ham mazmunan, ham ma'noviy tarafdin aynan muvofiq keladigan mutlaq ekvivalentlar ham topiladi. Biroq bunday mutlaq ekvivalentlar soni kam. Aksariyat hollarda tarjimon har bir maqol, matal yoki idiomaga, asarda tasvirlanayotgan voqealar mazmuni, ob'ekt, milliy muhit va uslub xususiyatiga ko'ra, o'z tilidan muqobil yoki monand birikmalar topib qo'yadi, yoki ularni so'zma-so'z tarjima qiladi. Shunga ko'ra, ayni bir xil

³⁷ И.В. Войцехович, А.Ф. Кондрашевский. Китайский язык/Общественно-политический перевод. – М.: Муравей, 2002. 第 94 页.

maqol yoki idiomani ham bir qancha o'rinlarda, ma'noga qarab, har xil o'girish mumkin. Binobarin, har qanday hollar uchun bab-baravar muvofiq keladigan tayyor resept berish amri mahol³⁸.

Maqol, matal va idiomalar tarjimasida uch prinsip hukm suradi:

1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish;

2) asar o'girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo'yish;

3) frazeologizmni aynan, so'zma-so'z tarjima qilish³⁹.

G'aybulla Salomov taklif etgan mazkur qonuniyatlarga asoslanib, siyosatchilarimiz nutqida uchragan frazeologizmlarni mana shu uch prinsipda tahlil qilsak.

“Sen menga tegma – men ham senga tegmayman” aqidasi⁴⁰ xitoy tilidagi tarjimada “事不关己” *shi buguan ji*⁴¹ tarzida berilgan, bo'lib xitoy tilidagi mazkur frazeologizm odatda o'zidan keyin “高高挂起” *gaogao guaqi* qismini ham olib, “事不关己，高高挂起” *shi bu guan ji, gaogao guaqi* naqli “agar biror ish senga bevosita aloqador bo'lmasa, uni yuqoriroq os (undan uzoq bo'l)” tarzida tarjima qilinadi. Bu vaziyatda muqobil variant juda o'rinli qo'llangan deb bildik.

Lekin yana shuning guvohi bo'ldikki, turli lug'atlarga mazkur iboraning bir biridan farqli tajimalari keltirilgan. Masalan, Tair Akimovning “Xitoycha-o'zbekcha-ruscha frazeologik” lug'atida “事不关己，高高挂起” *shi bu guan ji, gaogao guaqi* iborasiga “dunyoni suv olsa, to'pig'iga chiqarmaydi”⁴² muqobili

³⁸ G'. Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. – T: O'qituvchi, 1983. – B 118.

³⁹ G'. Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. – T: O'qituvchi, 1983. – B 321.

⁴⁰ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kinga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 201.

⁴¹ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第21页。

⁴² Akimov T., Kiraubayev J.A. Xitoycha-o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at. – T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2002. – B 240.

keltirilgan. Katta elektron xitoycha-ruscha lug'atda esa yuqorida ko'rsatgan tarjimamiz berilgan. Aynan shu variant bu o'rinda muvofiqroqdir.

“Tadbirkorlar faoliyatiga noxolis, tirnoq ostidan kir qidirish kayfiyati bilan qarashdan butunlay voz kechish, aksincha, ularning manfaatlari va qonuniy huquqlari himoyasini to'la ta'minlash fursati yetdi”.⁴³

是该彻底放弃对它们的活动明显带有偏见的责备态度的时候了，相反，要保证捍卫他们的利益，... Shi gai chedi fangqi dui tamen de huodong mingxian daiyou pianzheng de zebei taidu de shihou le, xiangfan, yao baozheng hanwei tamen de liyi,...⁴⁴

Bu jumlada o'zbek tilidagi “tirnoq ostidan kir qidirish” frazeologizmi uchun tarjimada 责备 *zebei* “aybsitmoq, ayblamoq” fe'l muqobili tanlangan. Bzi bu yerda boshqa o'zimizning variantimizni berishimiz mumkin. Xitoy tilida “biror kimsadan ayb izlash” ma'nosiga 找小脚 *zhao xiao jiao* – “kichik nuqson izlash” iborasi muvofiq keladi. Shu sabab o'zbek tilidagi “tirnoq ostidan kir qidirish” iborasiiga 找小脚 *zhao xiao jiao* iborasini muqobil variant sifatida olsak bo'ladi.

Bizning variant: 是该彻底放弃对它们的活动明显带有不客观、找小脚的态度时候了，.... Shi gai chedi fangqi dui tamen de huodong mingxian daiyou bu keguan, zhao xiao jiao de taidu de shihou le,.....

“Qo'shning tinch – sen tinch”⁴⁵ hayotiy naql bor.

Tarjima: “邻居平安，你也平安” *Linju ping'an, ni ye ping'an*⁴⁶. Mazkur naql so'zma-so'z tarjima qilingan bo'lib, tarjimaning badiiy ohangdorligini kuchaytirish uchun 邻居 *linju* so'zi o'rniga 邻家 *linjia*, ya'ni “qo'shni uy”, 你 *ni*

⁴³ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 190.

⁴⁴ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第13页。

⁴⁵ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 198.

⁴⁶ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第18页。

so'zi o'rniga 你家 *ni jia*, ya'ni "sening uying" so'z birikmalarini qo'yib tarjima qilish mumkin. "邻家平安，你家也平安" *linjia ping'an, ni jia ye ping'an*.

Prezidentimiz yaratgan «Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari»⁴⁷ tamoyili xitoy tilida grammatik jihatdan bexato tarjima qilingan: “从强有力的国家向强有力的公民社会过渡” *Cong qiang youli de guojia xiang qiang youli de gongmin shehui guodu*⁴⁸. Lekin bu yerda 过渡 *guodu*, ya'ni “o'tmoq” so'zining qo'llanilishi bir oz noo'rin. Chunki mazkur so'z biror-bir tizimdan boshqa tizimga butunlay o'tib olish ma'nosini berish uchun ishlatiladi. Ko'rsatilgan o'zbek tilidagi tamoyil esa mazmunan o'zgacharoq, ya'ni “sari” so'zi “yo'nalmoq” ma'nosini berib, xitoy tilida buni “走向” *zouxiang* so'zi bilan berish munosib bo'lib, bu yerda biz uslubni saqlab qolgan bo'lar edik. Bizning variant: “从强有力的国家走向强有力的公民社会”。 *Cong qiang youli de guojia zouxiang qiang youle de gongmin shehui*. Ma'lumki, xitoy tilida birgina iyeroglifning olib tashlanishi yoki o'zgartirilishi bilan so'zning va shu bilan birga butun boshli jumlaning mazmuni umuman o'zgarib ketishi mumkin. Mazkur fikrni, mana shu tamoyilning xitoy tilidagi tarjimasida ko'rsatib o'tmoqchimiz. Agarda 强有力的 *qiang youli de* so'zidagi 有 *you* so'zini olib tashlab, 强力的 *qiangli de* so'zi bilan qo'llasak ma'no butkul o'zgarib, “强力的国家” *qiangli de guo jia* “zo'ravon mamlakat” ma'nosi yuzaga keladi. Shu sababli, tarjimadagi har bir so'z, iyeroglifning o'rniga alohida e'tibor bermoqlik kerak.

Mazkur bobimizga quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

- Siyosiy terminologiya asosan ro'znoma-axborot uslubiga xos bo'lib bunday materiallarda ko'pma'noli terminlar, termin-sinonimlar, qisqartma termin va nomlar ko'p uchraydi.

⁴⁷ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. - B 181.

⁴⁸ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第6页。

- Xitoy tilida siyosiy terminlarning yasalihi odatda chet tilidan o'zlashgan so'zlarning ma'nan tarjima qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Masalan, 分裂主义 *fenliezhuyi* "separatizm" – 分裂 *fenlie* "ajratmoq" so'zi va 主义 *zhuyi* "-izm" so'z yasovchi qo'shimchasining birikishidan yasalgan.

- Tarjimon leksik birliklarni to'g'ri tanlash uchun o'z vatani hamda tarjima tili mamlakatining siyosiy hamda davlat tizimi, siyosiy lavozim antroponimikasi, faoliyat yuritayotgan partiyalar maqsad-vazifalari, huquqiy, adliya tizimi kabi siyosiy hayotidan yaxshi xabardor bo'lishi lozim.

- Siyosatchilar nutqida uchraydigan maqol, matal, hikmatli so'zlar 1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) asar o'girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo'yish; 3) frazeologizmni aynan, so'zma-so'z tarjima qilish tarjima prinsiplari asosida tarjima qilinadi.

III-BOB. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlar tarjimasini tahlili

bo'yicha amaliyot

III.1. O'zbek tilidagi siyosiy matnlarni vositachi til orqali xitoy tiliga tarjima qilish amaliyoti

Siyosiy matnlarni tarjima qiluvchi tarjimon birinchi navbatda mos leksikani mukammal egallagan bo'lishi lozim. Hozirda, o'zbek tilidagi siyosiy ma'ruzalar avvalambor rus tiliga so'ngra esa boshqa xorijiy tillarga tarjima qilish vaziyati kuzatilmoqda. Har yili mamlakatimizda sharq va g'arb tilini mukammal egallab chiqayotgan ko'plab yosh mutaxassislarimiz bor. Mana shu yoshlar, ya'ni biz tarjimachilik sohasining belidan mahkam ushlab, xorijga bevosita o'zbek tilidan o'girilgan haqqoniy va sifatli tarjimalarni yetkazib berish – bu bizning ham fuqarolik, ham kasbiy burchimizdir.

Mazkur bobimizda yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2005 yilgi ma'ruzalarining 刘显忠 Liu Syanjong va boshqa xitoy tarjimonlari tomonidan bajarilgan tarjimasini tahliliga bag'ishlangan. Aslini olganda ma'ruzalarning ushbu xitoy tilidagi tarjimasini yurtboshimiz nutqining rus tiliga bajarilgan tarjimasini orqali bilvosita tarjima qilingan. Bizga ma'lumki, vositachi til yordamida bajarilgan tarjima mahsullarining sifati ana shu tilda bajarilgan tarjima nusxasidan bir necha barobar past bo'ladi. O'zbek tarjimashunosi Quدرات Musayev ta'kidlab o'tganidek, u yoki bu asarning to'g'ridan-to'g'ri asliyatdan bajarilgan tarjimasida ham qator xato va kamchiliklarning sodir bo'lishi tabiiy hol. Chunki har bir adabiy meros boshdan-oyoq milliy xususiyatga burkangan bo'ladiki, tarjimada bu fazilatni yuz foiz aks ettirish imkoniyatdan tashqari. Uning vositachi til orqali bajarilgan tarjimasida esa bu xato va kamchiliklar miqdori yana xam oshib ketadi: asarni vositachi til orqali o'girayotgan tarjimon o'zi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklardan tashqari, asarni asliyatdan vositachi tilga tarjima qilgan san'atkor

tomonidan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni ham beixtiyor takrorlaydi⁴⁹. Siyosiy matn tarjimasida xuddi shu singari, vositachi til orqali tarjima qilinganida, yo'l qoyilgan xatolar, noto'g'ri tanlangan leksik birliklar yana takrorlanadi va ustiga-ustak qo'chimcha xatolarning ham qo'shilishi ehtimoldan holi emas.

Yuqorida siyosiy matndagi jumlar aniq, lo'nda, xatolarsiz amalga oshirilishi lozimligi haqida aytib o'tgandik. Biz tahlilini amalga oshirgan prezident ma'ruzasining xitoy tilidagi tarjimasida bir qator kichik noo'xshashliklariga duch keldik. Misol uchun, ma'ruzada "xalqaro me'yor va qoidalarga to'liq amal qilgan holda..."⁵⁰ ma'noli qismi "乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人" *Wuzibiekistan renmin conglai bu yilai renheren* asarida "完全符合国际法准则的要求..." *wanquan fuhe guojifa zhunzede yaoqiu...*⁵¹ tarzida tarjima qilingan bo'lib, *fuhe* "muvofig kelmoq, mos kelmoq" so'zi noo'rin qo'llanilgan. Bu yerda "amal qilmoq" o'rnida *zunshou* so'zini qo'llash joiz. Chunki "me'yorlarga amal qilmoq" va "me'yorga muvofig kelmoq" iboralari ma'nan o'xshash bo'lsada, stilistik jihatdan farqlidir.

Mazkur prezident ma'ruzasining rus tili vositasida tarjima qilinganligi sababli xitoy tilidagi tarjima matnida ham ayrim tushunchalarning boshqasi bilan almashtirib qo'llanilishi kuzatiladi. Masalan, "Saylovchilar tashabbuskor guruhlari"⁵² rus tiliga "инициативные группы населения"⁵³ tarzida tarjima qilinganligi tufayli "saylovchilar" so'zi xitoy tiliga *jumin* "aholi" (居民中有主动精神的团体 *jumin zhong you zhudong jingshende tuanti*⁵⁴) leksik birligi olinadi. Bu bilan tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatilgan demaymiz, balki tarjima

⁴⁹ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – B 33.

⁵⁰ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 174

⁵¹ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第2页

⁵² Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 175.

⁵³ Каримов И.А. Узбекский народ никогда и ни от кого не будет зависеть. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – С 83.

⁵⁴ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第2页。

rus tilidan vositasida o'girilganligi yaqqol sezilib qolganligini ko'rsatmoqchimiz xolos.

Albatta, xitoy tilidagi ushbu prezident ma'ruzasi tarjimasi juda yuqori saviyada bajarilgan bo'lib, xitoy tarjimonlarining o'z ona tili grammatikasi, stilistikasi kabi lisoniy qirralarini nihoyatda yaxshi bilishlari muqarrar. Shu bois ham tarjima juda chiroyli, sifatli bajarilgan. Lekin ayrim o'rinlarda o'zbekcha jumlaning rus tili vositasida noto'g'ri anglab, sintaktik jihatdan chalkashliklar vujudga kelgan. Masalan, “mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasi”⁵⁵ so'z birikmasi xitoy tilida “我国的发展战略” *woguo de fazhan zhanlue*⁵⁶ “mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasi” tarzida tarjima qilinib, o'zgacha sintaktik qurilish namoyon bo'ladi. Ya'ni “mamlakatimizni” tushum kelishigidagi so'z qaratqich kelishigidagi “mamlakatimizning” aniqlovchi so'ziga aylanib ketgan. Nazdimizda to'g'ri xitoycha variant – “发展我国的战略” *fazhan wo guode zhanlue* tarzida bo'lib, sodda qilib aytganda, “发展” *fazhan* va “我国的” *wo guode* so'zlarining o'rnini almashtirib qo'llash maqsadga muvofiq.

Yana bir sintaktik kamchilik “mamlakatdagi qoloqlik va kambag'allik muammolari”⁵⁷ so'z birikmasida uchraydi. Bu xitoy tilida “贫困和国家落后的问题” *pinkun he guojia luohoude wenti*⁵⁸ – “qashshoqlik va mamlakatning qoloqligi muammolari tarzida berilgan bo'lib, “mamlakatdagi qoloqlik” “mamlakatning qoloqligi”ga aylangan holda, so'zlarning tartibi o'zgarishi bilan ma'no ham bir oz o'zgaryapti. Bu yerda “在国家的贫困和落后的问题” *zai guojiade pinkun he luohoude wenti* deb tarjima qilishni o'rinli bilamiz.

⁵⁵ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 177.

⁵⁶ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第4页。

⁵⁷ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 178.

⁵⁸ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第5页。

Sintaktik jihatdan nafaqat so'z birikmalari balki tarjimada qo'shma gaplarning ham tarkibiy qismlari o'zni almashtirib joylashtirilganligi tufayli, ma'no bir oz asl ma'nosidan chetlashganligini ham kuzatamiz. Masalan, "Avvalambor, hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish"⁵⁹ jumlasini xitoy tiliga "首先, 必须对已经通过的法律进行系统的整理, 另外制订一些旨在分权和把部分中央的权力转归地方权力机关的法案" *Shouxian, bixu dui yijing tongguode falv jinxing xitongde zhengli, lingwai zhiding yixie zhi zai fenquan he ba bufen zhongyangde quanli zhuangui difang quanli jiguande fa'an*⁶⁰. Bu o'rinda o'zbek tilida "Avvalambor, qabul qilingan qonunlarni tizimlashtirish, bundan tashqari hokimiyat vakolatlarini bo'lish va ma'lum qismini mahalliy hokimiyat organlariga berish qonun loyihalarini o'rnatish" tarjimasi kelib chiqadi. Ko'rib turganimizdek, gap ikki alohida-alohida qismlarga bo'linib qolib, gapning ob'yekti bo'lmish "qonun" so'zining aniqlovchilari o'rtasida aloqa uzilgan.

Bizning variant: 首先, 必须对已经通过的一些旨在分权和把部分中央的权力转归地方权力机关的法律进行系统的整理, 另外制订一些补充法案。
Shouxian, bixu dui yijing tongguode yixie zhi zai fenquan he ba bufen zhongyangde quanli zhuangui difang quanli jiguande falu jinxing xitongde zhengli, lingwai zhiding yixie buchong fa'an.

«Muayyan buyurtmaga asoslangan maqsadlarni ko'zlamogda».

追求一些被禁止的目标 *zhuiqiu yi xie bei jinzhide mubiao* – noqonuniy maqsadlarga intilmoqda aslyat matnining asl mohiyatini ochib bera olmagan. Bu yerda «buyurtmaga asoslangan» degan so'z birikmasini qo'llash zaruriydir.

⁵⁹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 181.

⁶⁰ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第6页。

Bizning variant: 追求一些以一定的操纵为基础的目标 *zhuiqiu yixie yi yiding de caozuo wei jichu de mubiao*

Siyosiy matn tarjimasida leksik birliklarning aynan muqobili emas, mazmun jihatdan o'xshash so'z birikmalari ham ishlatilishi mumkin. Masalan,

“Biz hokimiyatning uchinchi tarmog'i – sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirishga alohida ahamiyat beramiz⁶¹”.

Tarjima: 我们赋予改革及进一步取消对第三个权力分支 —— 司法体制的限制以重要意义。 *Women fuyu gaige ji jin yi bu quxiao dui di san ge quanli fenzhi – sifa tizhi de xianzhi yi zhongyao yiyi*⁶².

Bu jumlada «liberallashtirish» so'zi xitoy tilida 自由化 *ziyouhua* bo'lib, tarjima matnida 取消限制 *quxiao xianzhi* “chegaralashni yo'qotish” so'z birikmasi bilan berilgan. Bu variant ham xato hisoblanmay, bu o'rinda g'aliz qo'llangan emas.

“Sudlarning o'zi esa ularga xos bo'lmagan vazifalardan ozod etildi”⁶³.

Tarjima: 法院让出了不属于它们的权力 *fayuan rangchu le bu shuyu tamen de quanli*⁶⁴.

Mazkur tarjimada noto'g'ri leksik birliklar qo'llanilganligi sababli tarjima mazmuni asliyatga to'g'ri kelmay qolgan. Ya'ni “Sud ularga tegishli bo'lmagan huquqlardan ozod qildi” deb xato tarjima qilingan.

Bizning variant: 法院被让出了和它们无关的任务 *fayuan bei rangchu le he tamen wuguan de renwu*.

⁶¹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 184.

⁶² 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第9页。

⁶³ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 185.

⁶⁴ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第9页。

Siyosiy matnda butun bir abzasning jummalarga noto'g'ri bo'linib, tinish belgilarining xato qo'yilishi mazmunan chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bunga misol,

“Shu munosabat bilan partiyalar aholi o'rtasida obro'-e'tibor qozonish maqsadida izchil ish olib borishi, siyosiy tajriba orttirishi, siyosiy yetuklikka intilishi va eng muhimi, moliyaviy mustaqillikka erishish, jamiyatda o'z o'rnini topish va o'zining doimiy saylovchilariga tayanish uchun faol harakat qilishi kerak. Dasturi va yo'nalishidan qat'iy nazar, shak-shubhasiz, barcha partiyalarimiz mana shunday yo'lni bosib o'tishi muhim ahamiyatga ega”⁶⁵.

Tarjima: 因此，不断开展扩大自己在居民中间威信的工作、积累政治经验和政治成熟性，具有特别现实的意义。加强财政的独立性，巩固自己在社会上的位置和自己的固定选民，毫无疑问，这就是我们的各个政党的必经之路，而不取决于它们的纲领和方针。 *Yinci, buduan kaizhan kuoda ziji zai jumin zhongjian weixin de gongzuo, jilei zhengzhi jingyan he zhengzhi chengshuxing, juyou tebie xianshi de yiyi. Jiaqiang caizheng de dulixing, gonggu ziji zai shehui shang de weizhi he ziji de guding xuanmin, haowu yiwen, zhe jiu shi women de ge ge zhengdang de bijing zhi lu, er bu qujue yu tamen de gangling he fangzhen*⁶⁶.

Bizning variant: 因此为了扩大自己在居民中间威信各个政党应该不断积极活动——积累政治经验和追求政治成熟性，加强财政的独立性，巩固自己在社会上的位置，依靠自己的固定选民。毫无疑问，我们各个政党不顾它们的纲领和方针必须经过这样的路途。 *Yinci weile kuoda ziji zai jumin zhongjian weixin ge ge zhengdang yinggai buduan jiji huodong – jilei zhengzhi jingyan he zhuiqiu zhengzhi chengshuxing, jiaqiang caizheng de dulixing, gonggu ziji zai shehui shang de weizhi, yikao ziji de guding xuanmin. Haowu yiwen,*

⁶⁵ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 181.

⁶⁶ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第7页。

women ge ge zhengdang bu gu tamen de gangling he fangzhen bixu jingguo zheyangde lutu.

Ko'p o'rinlarda o'zbek tilidagi siyosiy matnning ikkita alohida abzats qismi bir butun sintaktik va grammatik bog'langan jumlada jamlangan bo'lib, agar buni o'sha tilning xususiyatidan kelib chiqib yondoshsak, agar jumlada katta kamchiliklar uchratmasak, bu ham xato emas.

“Tadbirkorlar faoliyatiga noxolis, tirnoq ostidan kir qidirish kayfiyati bilan qarashdan butunlay voz kechish, aksincha, ularning manfaatlari va qonuniy huquqlari himoyasini to'la ta'minlash fursati yetdi.

Mamlakatimiz kelajagini belgilab beradigan bu toifa vakillariga shunday huquqiy zamin, imtiyoz va kafolatlar tizimini yaratish kerakki, ular o'zi, o'z oilasi, butun mamlakat iqtisodiyotining ravnaqi yo'lida emin-erkin va aniq maqsad bilan mehnat qila olsinlar”⁶⁷.

Tarjima: 是该彻底放弃对它们的活动明显带有偏见的责备态度的时候了，相反，要保证捍卫他们的利益，不允许妨碍它们合法权利，为它们创建这样一种法制环境、优惠和保障体系，以便它们能够完全自由的和目标明确的为自己的家庭，为国家的经济利益工作。*Shi gai chedi fangqi dui tamen de huodong mingxian daiyou pianzheng de zebei taidu de shihou le, xiangfan, yao baozheng hanwei tamen de liyi, bu yunxu fang'ai tamen hefa quanli, wei tamen chuangjian zheyang yi zhong fazhi huanjing, youhui he baozhang tixi, yibian tamen nenggou wanquan ziyou de he mubiao mingque de wei ziji de jiating, wei guojia de jingji liyi gongzuo*⁶⁸.

Ko'rib turganimizdek yuqoridagi xitoy tilidagi tarjima jumlasini oltita vergul' belgisi bilan birlashtirilgan. Bu yerda “mamlakatimiz kelajagini belgilab beruvchi”

⁶⁷ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 190.

⁶⁸ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第13页。

tushirib qoldirilga bo'lib, bu so'zni “建立我国的前途” *jianli wo guo de qiantu* holida o'z o'rnida qo'llagan ma'qul.

Yana bir shunga o'xshash, matnni asliyat tilidan tarjima tiliga o'girishda tarjima tilining punktuatsiya qonuniyatlariga tayanib, tinish belgilarining o'zgarib ketish holatlari ko'p uchraydi. Masalan,

“Bu o'rinda gap, ayrim mamlakatlarda bo'lganidek, o'lim jazosiga moratoriy qo'llash, ya'ni mahkum yillar davomida ushbu jazo chorasi qachon ijro etilishini kutib yotishi to'g'risida emas, balki uni butunlay bekor qilish haqida bormoqda”⁶⁹.

这里指的不是对死刑的缓期执行（有些国家是这么做的，犯人要等许多年，等着这一惩罚措施的执行），而是完全废除死刑。*Zhe li zhi de bus hi dui sixing de n qi zhixing (you xie guojia shi zheme zuo de, fanren yao deng xuduo nian, dengzhe zhe yi chengfa cuoshi de zhixing), er shi wanquan feichu sixing*⁷⁰.

Mazkur vaziyatda “ayrim mamlakatlarda...” so'z birikmasi bilan boshlangan va uchinchi vergul belgisidan oldin to'xtagan sintaktik qism tarjima matnida qavus belgisi bilan berilgan. Tarjima matnida kuzatilgan faqat birgina kichik xato, bu jumlaning stilistik va g'oyaviy bog'lanishi bir oz buzilgan bo'lib, gapdagi kuchli urg'u berilgan izohiy qism tarjima matnida qavus ichiga olinib matnga tegishli bo'lmagan ma'lumot singari izohiy qism sifatida berilgan.

“Xalqimiz ommaviy axborot vositalaridan mamlakatimiz va xorijda sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida xolis va tezkor axborotlar olishni, shu bilan birga, birinchi navbatda hokimiyat organlari va boshqaruv tuzilmalari faoliyati haqidagi tanqidiy fikrlarni, islohotlar va yangilanishlar yo'lidan ilgari borishimizga to'siq

⁶⁹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 188.

⁷⁰ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第11页。

bo'lib turgan nuqsonlar, hayotdagi dolzarb muammolar hususida oshkora, professional tahliliy materiallarni kutadi”⁷¹.

“От средств массовой информации люди ждут, наряду с объективной, непредвзятой информацией о событиях, происходящих в стране и за её пределами, в первую очередь критической оценки деятельности органов власти и управленческих структур, открытого профессионального анализа пороков, острых злободневных проблем нашей жизни, всего того, что тормозит продвижение страны по пути реформ и обновления”⁷².

«人们从大众媒体获得的除了对国内外发生的事件的客观、公正的报道外，主要还是对权力机关和管理机关工作的批评，对我们生活中的一些缺点、非常迫切需要解决的问题、妨碍国家沿着改革和革新之路推进的一切进行公开的职业分析。 *Renmen cong dazhong meiti huode de chu le dui guo nei wai fashengde shijian de keguan, gongzheng debaodao wai, zhuyao haishi dui quanli jiguan he guanli jiguan gongzuo de piping, dui women shenghuo zhong de yi xie quedian, feichang poqie xuyao jiejuede wenti, fang'ai guojia yanzhe gaige he gexin zhilu tuijin de yi qie jinxing gongkai de zhiye fenxi*”⁷³.

Yuqorida keltirilgan misolda vositachi rus tilida o'zbek tilidagi jumlaning tarkibiy qismlari bo'lmish ayrim sintaktik birliklarning o'rni almashtirib joylashtirilganligi tufayli, tarjima matnida ham aynan shu holatni kuzatish mumkin. Bu holat bir oz chalkashlikni keltirib chiqarib, tarjimada aniqlovchi va aniqlanmish o'rtasidagi aloqa yo'qolgan.

Bizning variant: «我国人们期待大众媒体获得对国内外发生的事件的客观、公正的报道，以及首先，对权力机关和管理机关工作的批评意见，妨碍国家沿着改革和革新之路推进的一些缺点、生活中的紧迫问题的一切进行公

⁷¹ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 190.

⁷² Каримов И.А. Узбекский народ никогда и ни от кого не будет зависеть. – Т: Ўзбекистон, 2005. – В 97.

⁷³ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第13页。

开的职业分析。 *Wo guo renmen qidai dazhong meiti huode dui guo nei wai fasheng de shijian de keguan, gongzhengde baodao, yiji shouxian, dui quanli jiguan he guanli jiguan gongzuo de piping yijian, fang'ai guojia yanzhe gaige he gexin zhilu tuijin de yi xie quedian, shenghuo zhong de jinpo wenti de yiqie jinxing gongkai de zhiye fenxi*».

Xitoy tilida yana bir o'ziga xos grammatik kategoriya borki, uni qo'llamaslik va noto'g'ri qo'llash nafaqat siyosiy, balki boshqa tur tarjima mazmunini ham buzib qo'yadi. Shunday grammatik kategoriyalarga 补语 *buyu* kiradi. Mazkur grammatik kategoriyaning o'zbek tilida ayni muqobil nomi bo'lmay, izohlab tarjima qilsak, «fe'lga yordamchi qo'shimcha bo'lak fe'l» deb aytsak bo'ladi. Bunday fe'l-bo'lak asosiy fe'l ortidan bog'lanib kelib, ish-harakatning natijasi, holati, sifati, darajasi kabilarni ko'rsatadi. Masalan,

«Biz milliy manfaatlarimiz mos keladigan barcha mamlakatlar bilan faol hamkorlik qilishga tayyormiz»⁷⁴.

“我们准备与所有和我们民族利益相一致的国家进行积极的合作。
Women zhunbei yu suoyou he women minzu liyi xiang yizhi de guojia jinxing jiji de hezuo”⁷⁵.

O'zbek tilidagi jumlada asosiy fe'l, ya'ni gapning kesimi – “tayyor bo'lmoq”. Bu so'z xitoy tilidagi tarjimada 准备 *zhenbei* “tayyorlanmoq” deb ifodalangan. Ko'rib turganimizdek, “tayyor bo'lmoq” va “tayyorlanmoq” so'zlari o'rtasida farq bor. 准备 *zhunbei* so'ziga 好 *hao* buyuni biriktirsak, “tayyorlanib bo'lmoq”, “tayyor bo'lmoq” ma'nolarini beradi. Shu tufayli mazkur o'rinda “biz tayyormiz” qismini 我们准备好了 *women zhunbei hao le* tarzida ifodalasak maqsadga muvofiq bo'lardi.

⁷⁴ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 195.

⁷⁵ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第17页。

Lekin yana shuni kor'satib o'tish lozimki, o'zbek tilidagi "tayyor bo'lmoq" fe'li "istamoq", "xohlamoq" ma'nosiga ham ega. Yuqoridagi jumla "Biz.....hamkorlik qilishni istaymiz" mazmunini ifodalasa, "我们愿意....合作" *women yuanyi...hezuo* tarzida tarjima qilsak bo'ladi. Aynan shu mazmunni biz quyidagi jumlada ko'ramiz:

"Ayni paytda xalqaro hayotning muayyan printsiplial tafovut bo'lgan davlatlar bilan ham ochiq muloqot olib borishga hozir ekanligimizni bildiramiz"⁷⁶.

同时, 我们也愿意支持以开放的态度和那些在国际生活中与我们有这样那样的原则性问题分歧的国家展开对话。 *Tongshi, women ye yuanyi zhichi yi kaifang de taidu he na xie zai guoji shenghuo zhong yu women you zheyang nayang de yuanzexing wenti fenqi de guojia zhankai duihua*⁷⁷.

Bu jumlada "hozir bo'lmoq", "tayyor bo'lmoq" fe'li "istamoq" ma'nosida olinib, xitoy tiliga 愿意 *yuanyi* ("istamoq, xohlamoq") tarzida tarjima qilingan.

Quyidagi jumlada ham fe'lning tarjimasi not'g'ri bajarilgan bo'lib, bu xatolik ham vositachi til orqali o'tgan.

"Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, bu mintaqani barqaroq xavfsizlik hududiga aylantirishni tashqi siyosatimizning muhim ustuvor yo'nalishi etib belgilab olganmiz"⁷⁸.

«Важнейший приоритет нашей внешней политики мы видим в сохранении мира и стабильности в Центральноазиатском регионе и превращении этого региона в устойчивую зону безопасности»⁷⁹.

«我们认为, 我国对外政策最优先的方面是保持中亚地区的和平与稳定, 并把中亚变成稳固的安全地区。 *Women renwei, wo guo duiwai zhengce zui*

⁷⁶ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 195.

⁷⁷ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京: 时事出版社, 2006年。第17页。

⁷⁸ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 196.

⁷⁹ Каримов И.А. Узбекский народ никогда и ни от кого не будет зависеть. – Т: Ўзбекистон, 2005. – В 102.

youxian de fangmian shi baochi Zhongya diqu de heping yu wending, bing ba Zhongya biancheng wengu de anquan diqu»⁸⁰.

O'zbek tilidagi “deb belgilab olganmiz” fe’li jumlaning kontekstiga ko’ra “qabul qilmoq” ma’nosini beradi. Rus tilida esa bu so’z “видим”, xitoy tilida 认为 *renwei* (deb bilamiz) sifatida tarjima qilingan. Bu o’rinda “采纳” *caina* so’zini qo’llash o’rinli bo’lib, rus tilida “применять (пополитику)”, “придерживаться” ma’nolarini bildiradi. Eng maqbul variant “采纳” *caina* fe’lidir.

“O’zbekiston tashqi siyosat sohasidagi vazifalarni hal etishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi”⁸¹.

“在决定对外政策方面，乌兹别克斯坦对于在联合国框架内发展合作正在发挥着重大作用。Zai jueding duiwai zhengce fangmian, Wuzibiekeshitan duiyu zai Lianheguo kuangjia nei fazhan hezuo zhengzai fahui zhe zhongda zuoyong”⁸².

Mazkur jumlada “Birlashgan Millatlar tashkilotining doirasi” “联合国框架” Lianheguo kuangjia tarzida tarjima qilinib, bu yerdagi 框架 *kuangjia* – “rom” (deraza romi, fotosurat romi) monosemantik bitta ma’noni beradi. Mazkur so’zni ko’chma ma’noda qo’llab bo’lmaydi. Jumlada kelayotgan “doira” so’zi bu o’rinda “soha” ma’nosini beradi, shu sababli “范围” *fanwei* so’zini qo’llagan maqsadga muvofiq. Jumla tarjimasida yana bir o’rinsiz ishlatilgan so’z birikmasi “发挥重大作用” *fahui zhongda zuoyong* “katta ahamiyat namoyon qiladi” tarzida tarjima qilinadi. Ko’rinib turganidek, aslyiat tilidagi mazmunga tarjima muvofiq emas. Quyida o’z variantimizni bersak,

⁸⁰伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。-北京：时事出版社，2006年。第17页。

⁸¹Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. – T.: O’zbekiston, 2005. – B 198.

⁸²伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。-北京：时事出版社，2006年。第19页。

Bizning variant: “在决定对外政策方面，乌兹别克斯坦赋予在联合国范围内发展合作以特别重要的意义。 *Zai jueding duiwai zhengce fangmian, Wuzibiekeshitan fuyu zai Lianheguo fanwei nei fazhan hezuo yi tebie zhongyao de yiyi*”.

Quyidagi jumlaning tarjimasida gap tartibining bir oz buzilishini va shu tufayli mazmunning ham hiyol o'zgarganligini kuzatishimiz mumkin.

“Biz bu nufuzli tashkilotning mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlash hamda hozirgi zamonning boshqa dolzarb muammolarini hal etish borasidagi ishtiroki kengayishidan manfaatdormiz”⁸³.

“乌兹别克斯坦希望联合国吸引更多的国家参与，以便解决地区和全球安全保障问题，以及其他当前急迫需要解决的问题。 *Wuzibiekeshitan xiwang Lianheguo xiyin geng duo de guojia canyu, yibian jiejie diqu he quanqiu anquan baozhang wenti, yiji ta dangqian jipo xuyao jiejie de wenti*”⁸⁴.

Bizning variant: “乌兹别克斯坦与扩张联合国解决地区和全球安全保障问题，以及其他现代迫切问题的吸引范围有利害关系”。 *Wuzibiekeshitan yu kuozhang Lianheguo jiejie diqu he quanqiu anquan baozhang wenti, yiji qita xiandai poqie wenti de xiyin fanwei you lihain guanxi*”.

“Shu bilan birga, jahon maydonida xalqaro xavfsizlik masalasi bilan bog'liq mutlaqo yangi tendensiya va vaziyatlar, shuningdek, yangi tahdidlarning paydo bo'lishi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilmalarini, birinchi navbatda, uning yetakchi organi – Xavfsizlik Kengashini isloh qilish va tarkibini qayta ko'rib chiqishni tezlashtirishni taqozo etmoqda”⁸⁵.

⁸³ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 198.

⁸⁴ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第19页。

⁸⁵ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 198.

Tarjima: 同时, 我们认为, 国际舞台发生了根本性的变化, 新的形势和趋势以及世界安全的威胁要求尽快改革和重新改组联合国机构, 首先是它的主要机构——安理会。 *Tongshi, women renwei, guoji wutai fashengle genbenxing de bianhua, xin de xingshi he qushi yiji shijie anquan de weixie yaoqiu jinkuai gaige he chongxin gaizu lianheguo jigou, shouxian shi ta de zhuyao jigou* ——Anlihui⁸⁶.

Yuqoridagi gapda 根本性的变化 *genbenxing de bianhua* – “ahamiyatli o’zgarish” so’z birikmasini jumlagga qo’shib qo’yishning umuman zariyati yo’q. Aksincha, tarjima jumlasida tushirib qoldirilgan “mutlaqo” so’zini 完全 *wanquan* tarzida qo’shib qo’ygan maqsadga muvofiqdir.

Quyidagi jumla ham bilvosita tarjima qilinganligi sababli bir oz qusurlari ko’zga tashlanadi.

“Mintaqamizdagi hozirgi mavjud ahvolni real va xolis baholar ekanmiz, Afg’onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va qayta tiklash borasida davom etayotgan ijobiy jarayonlar bilan bir qatorda, mintaqada strategik mavhumlik saqlanib qolayotganini ham tan olishga to’g’ri keladi”⁸⁷.

“Трезво и реалистично оценивая текущую ситуацию в нашем регионе, приходится признать, что наряду с продолжающимися позитивными процессами стабилизации обстановки и восстановления Афганистана в регионе прдолжает сохраняться стратегическая неопределённость”⁸⁸.

冷静而现实的评价我们地区当前的形势, 不得不承认, 伴随着持续稳定和阿富汗重建的良好进程, 区域内仍存在着战略性不稳定因素。 *Lengjing er xianshi de pingjia women diqu dangqian de xingshi, bu de bu chengren,*

⁸⁶ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京: 时事出版社, 2006年。第19页。

⁸⁷ Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. – T.: O’zbekiston, 2005. – B 196.

⁸⁸ Каримов И.А. Узбекский народ никогда и ни от кого не будет зависеть. – Т: Ўзбекистон, 2005. – С 102.

*suibanzhe jixu wending he Afuhan chongjian de lianghao jincheng, quyu nei reng cunzai zhe zhanluexing bu wending yinsu*⁸⁹.

Ushbu tarjima jumlada gap tartibi bir oz o'zgarishlarga uchragan "Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va qayta tiklash" iborasi "процесс стабилизации обстановки и восстановления Афганистана" deb noto'g'ri talqin etilganligi sababli xitoy tiliga "稳定和阿富汗重建的进程" *wending he Afuhan chongjian de jincheng* tarzida rus tilidagi variantdanda chalkash tarjima qilingan. Bu o'rinda jumlaning rus tiliga "процесс стабилизации и восстановления обстановки в Афганистане", xitoy tiliga "在阿富汗局势的稳定和复兴的进程" *zai Afuhan jushide wending he fuxing de jincheng* tarzida tarjima qilish maqsadga muvofiq. Jumlaning "real va xolis" iborasi ham rus tilida "трезво и реалистично", xitoy tilida "冷静而现实" *lengjing er xianshi* deb tarjima qilinishi ham bir oz noo'rin. Munosib variant – "реалистично и объективно", "现实而客观" *xianshi er keguan*.

Bizning variant: 现实而客观地评价我们地区当前的形势，与继续着在阿富汗局势稳定和复兴的良好进程同样，区域内仍存在着战略抽象性的因素。
Xianshi er keguan de pingjia women diqu dangqian de xingshi, yu jixu zhe zai Afuhan jushi wending he fuxingde lianghao jincheng tongyang, quyu nei reng cunzai zhe zhanlue chouxixing de yinsu.

Endilikda tillarning o'z struktur, grammatik hususiyatlaridan kelib chiqib, asliyat matni va tarjima matni o'rtasidagi tafovutlarni, mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan tarjima variantlarining tahlilini amalga oshirsak.

"Mamlakatni monernizasiya qilish va aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish borasida o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarimiz hamda

⁸⁹ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第17页。

mintaqa va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni ob'yektiv shart qilib qo'ymoqda"⁹⁰.

Tarjima: 我们在实现国家的现代化和保障居民应有的生活水平方面所提出的目标和任务，不断变化的形势以及区域及国际市场竞争的残酷方式，在客观上都要求必须更进一步深化经济改革。 *Women zai shixian guojia de xiandaihua he baozhang jumin yingyou de shenghuo shuiping fangmian suotichu de mubiao he renwu, buduan bianhua de xingshi yiji quyue ji guoji shichang jingzheng de canku fangshi, zai keguan shang dou yaoqiu bixu geng jin yi bu shenhua jingji gaige*⁹¹.

Ushbu jumlada “mamlakatni modernizasiya qilish” so'z birikmasi “实现国家的现代化” *shixian guojia de xiandaihua* tarzida tarjima qilinib, bunda shuni kuzatishimiz mumkinki, xitoy tilidagi “fe'l+ob'yekt” sintaktik birligi shakliga tushirilgan. “实现国家的现代化”ni “amalga oshirish mamlakatning zamonaviylashuvini” deb so'zma-so'z tarjima qilishimiz mumkin. Ko'rib turganimizday, o'zbek tili va xitoy tili sintaktik qurilishi o'rtasida bir qator farqli jihatlari bor: o'zbek tilida “ob'yekt + fe'l”, xitoy tilida “fe'l + ob'yekt”.

Yana aynan shunday misol: “aholiga munosib turmush sharoiti yaratib berish” “保障居民应有的生活水平” *baozhang jumin yingyou de shenghuo shuiping* tarzida tarjima qilinib, agar xitoy tilidagi so'z birikmasini so'zma-so'z tarjima qilsak, “kafolatlamok aholiga munosib turmush sharoitini”.

Biz tahlilini ko'rib chiqayotgan jumlaning xitoy tilidagi tarjimasi vositachi til orqali tarjima qilinganligi tufayli bir oz chalkashlikni kuzatdik. Ya'ni, “mintaqa va jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat” frazasi “不断变化的形势以及区域及国际市场竞争的残酷方式” *buduan bianhua de*

⁹⁰ Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005. – B 209.

⁹¹ 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。- 北京：时事出版社，2006年。第19页。

xingshi yiji quyū ji guoji shichang jingzheng de canku fangshi tarzida tarjima qilinib, agar soʻzma-soʻz tarjimasi amalga oshirilsa, “uzluksiz oʻzgarib borayotgan vaziyat hamda mintaqaviy va xalqaro bozor raqobatining shafqatsiz usuli” maʼnoli qism vujudga keladi. Bu yerda gap tartibi, undagi komponentlarning oʻrni butunlay almashib, mazmun oʻzgarishlar roʻy bergan. “Oʻzgarayotgan vaziyat”, yaʼni “oʻzgarishlar” “mintaqa va jahon bozorlari”ga tegishli. Xitoy tilidagi “残酷” *canku* soʻzi “shafqatsiz, gʻayriinsoniy” maʼnolarini berib, oʻta kuchli boʻyoqdorlikka ega va shunidek, mazkur soʻzning salbiylik xususiyati yuqori boʻlganligi sababli aslyatdagi matn mazmuniga toʻgʻri kelmaydi. Bizning variant: “在区域及世界市场上不断变化的形势，很大的需求量和竞争” *zai quyū ji shijie shichang shang buduan bianhua de xingshi, hen da de xuqiuliang he jingzheng*.

“Keyingi yillarda respublika hukumati tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida xususiy biznes faoliyat koʻrsatayotgan makroiqtisodiyot va tadbirkorlik muhiti ancha yaxshilandi”⁹².

得益于政府近年来采取的措施，私营企业赖以生存的宏观经济环境和经营环境得到显著改善。 *Deyiyu zhengfu jinnian lai caiqu de cuoshi, siying qiye lai yi shengcun de hongguan jingji huanjing he jingying huanjing dedao xianzhu gaishan*.

Ushbu tarjima jumlasida “keyingi yillarda” “近年来” *jinnianlai* soʻzini aslyat matnidagi singari xol vazifasida emas, balki “chora-tadbirlar” soʻzining aniqlovchisi vazifasida kelishini kuzatamiz. “得益于” *deyiyu* feʼli “foйда olmoq”, “naf koʻrmoq” maʼnolarini berib”, bu yerda “hukumatning keyingi yillardagi amalga oshirgan chora-tadbirlardan naf koʻrib” tarzida tarjimaning bir oz oʻzgarishga uchraganligini sezish mumkin. Gapning ikkinchi qismida ikki marta ishtirok etgan “环境” *huanjing* “muhit” soʻzining birinchisini tushirib qoldirish ham mumkin. Yana bu qismda “tadbirkorlik”ning “经营” *jingying* soʻzi bilan

⁹² 211

berilishi noo'rin. “经营” *jingying* “xo'jalik”dir, aslo “tadbirkorlik” emas. Bu uchun “企业” *qiye* so'zini olish maqsadga muvofiq.

Bizning variant: 由于近年来政府采取的措施的结果，私营企业赖以生存的宏观经济和企业环境得到显著改善。 *Youyu jinnianlai zhengfu caiqu de cuoshi de jieguo, siying qiye lai yi shengcun de hongguan jingji he qiye huanjing dedao xianzhu gaishan.*

Yuqorida aytib o'tganimizdek, siyosiy matn lo'nda, konkret tarjima qilinishi lozim. Lekin bu aslo siyosatchining nutqidagi 2-3 ta emas, balki bir boshli abzats qismni tushirib qoldirib, siyosiy matn tarjimasining lo'ndaligini saqlab qolish darkor, degani emas (ayniqsa tarjimaning yozma turida). Biz ko'rib chiqayotgan tahlilimizda ham shunday o'rinlarga ham duch keldik. Masalan, o'zbek tilida chop etilgan prezident ma'ruzasining 179-180 sahifalaridagi ikki jumladan iborat sakkiz qatorli, 183-betdagi bir jumlati fikri rus tilida ham, natijada xitoy tilida ham tarjima qilinmay tashlab ketilgan. Tahlil jarayonida shu singari fikr, jumlaning tushirib qoldirish o'rinlari bir oz ko'p uchradi. Siyosatchining har bir so'zi uning siyosiy faoliyati uslubini, yondashuvini belgilab beradi. Shunday ekan, jummalarni imkon qadar to'liq tarjima qilishga e'tibor bergan ma'qul deb o'ylaymiz.

III.2. O'zbek tilidan xitoy tiliga siyosiy sintagmalar tarjimasi

Tarjimonlik faoliyatida har bir sohaning o'z terminologiyasi hamda sintagmalarini mukammal o'rganishi katta ahamiyatga molikdir. Sintagma – bu (yunon. Syntagma – birlashgan narsa) nutqning mazmun va ritmik-melodik jihatdan bir butunlikni hosil etuvchi semantik-sintaktik bo'lagi. Sintagma bir yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lishi, hatto gapga teng bo'lish mumkin⁹³.

⁹³ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985. – B 75.

O'zbek tilidan xitoy tiliga tarjima qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga siyosiy matnlarni tarjima qilishda amaliy ko'rsatma va ko'mak sifatida bir qator sintagmalarni keltirsak.

Davlatdagi ijtimoiy sinflarning o'rni —— 社会各阶级在国家的地位 *shehui ge jijie zai guojiade diwei*

Tarixda turli-tuman siyosiy tizimlar bo'lgan —— 历史上的政体五花八门 *lishi shang de zhengti wuhua bamen*

Davlat rahbari monarx (qirol)dir —— 国王担任国家元首 *guowang danren guokia yuanshou*

Oliy (absolyut) huquqqa ega bo'lmoq —— 拥有至高无上的权力 *yongyou zhigao wushang de quanli*

Hukmdorning irodasi qonundir —— 君主的意志就是法律 *juzhude yizhi jiu shi falv*

Hech narsadan cheklanmaslik —— 不受任何约束 *bu shou renhe yueshu*

Umrining oxirigacha hukmdorlil qilish tizimi —— 君主实行终身制 *junzhu shixing zhongshenzhi*

Bunday siyosiy tizim besh ming yillik tarixga egadir —— 这种政治制度已有五千年的历史 *zhe zhong zhengzhi zhidu yi you wu qian nian de lishi*

Avtoritar tizimni amalga oshirmoq —— 实行政治专政制度 *shixing zhengzhi zhuanzheng zhidu*

Monarxning hokimiyati cheklanmagan —— 君主的权力无限 *junzhu de quanli wuxian*

Konstitusiyaviy monarxiyaga tadrijiy rivojlangan —— 演变成“君主立宪制” *yanbian cheng “junzhu lixianzhi”*

Davlat konstitusiyani ishlab chiqaradi —— 国家制定宪法 *guojia zhiding xianfa*

Konstitusiya monarxning hokimiyatini chegaralashi kerak —— 君主要受宪法的限制 *junzhu yao shou xianfa de xianzhi*

Qirol faqat rasman davlat rahbari hisoblanadi —— 国王只是形式上的元首 *guowang zhi shi xingshi shang de yuanshou*

Davlat hokimiyatiga ega bo'lmoq —— 掌握国家政权 *zhangwo guojia zhengquan*

Hukumat vakillik organlari va davlat rahbari saylanadi —— 国家的代表机关和国家元首由选举产生 *guojia de daibiao jiguan he guojia yuanshou you xuanju chansheng*

Muvofiq vakolat muddatini belgilamoq —— 规定相应的任期 *guiding xiangying de renqi*

Aksariyat mamlakatlar respublika tizimini amalga oshiradi —— 大多数国家实行共和制 *daduoshu guojia shixing gonghezhi*

Ijro etish hokimiyatini boshqarmoq —— 总揽行政权 *zonglan xingzhengquan*

Hukumat vazirlari prezident tomonidan tayinlanadi —— 政府各部部长由总统任命 *zhengfu ge bu buzhang you zongtong renming*

Vazirlar prezidentga bo'ysunadilar/prezident oldida javob beradilar —— 各部部长对总统负责 *ge bu buzhang dui zongtong fuze*

Prezident siyosiy masalalar bo'yicha muntazam parlamentga hisobot topshiradilar —— 总统定期向议会报告政务 *zongtong dingqi xiang yihui baogao zhengwu*

Prezident parlament tomonidan qabul qilingan qonun loyihalarini ta'qiqlash huquqiga ega —— 总统对议会通过的法案可以行使否决权 *zongtong dui yihui tongguo de fa'an keyi xingshi foujuequan*

Prezident parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega emas —— 总统无权解散议会 *zongtong wuquan jiesan yihui*

Hukumat bir necha partiyalar uyushmasidan tashkil topadi —— 政府由几个政党联合组成 *zhengfu you ji ge zhengdang lianhe zucheng*

Bosh vazirlikni partiya yetakchisi bajaradi —— 总理由党的领袖担任 *zongli you dang de lingxiu danren*

Vazirlar Mahkamasi boshchisi davlat rahbari tomonidan tayinlanadi —— 内阁首脑由国家元首任命 *neige shounao you guojia yuanshou renming*

Parlament hukumatga nisbatan ishonchsizlik votumi chiqaradi —— 议会通过对内阁的不信任案 *yihui tongguo dui neige de bu xinren'an*

Bosh vazirlik saylovlarini qayta o'tkazish (qayta saylash) —— 另选总理 *lingxuan zongli*

Vazirlar mahkamasi davlat rahbaridan parlamentni tarqatib yuborishni iltimos qilishi mumkin —— 内阁可以提请国家元首解散议会 *neige keyi tiqing guojia yuanshou jiesan yihui*

Vazirlar mahkamasining taqdiri yangi saylangan parlament tomonidan hal qilinadi —— 由新当选的议会决定内阁的去留 *you xin dangxuan de yihui jueding neige de quliu*

Davlat siyosiy faollik markazi —— 国家政治活动中心 *guojia zhengzhi huodong zhongxin*

Hukumat parlament tomonidan tayinlanadi —— 政府由议会产生 *zhengfu you yihui chansheng*

Vazirlar mahkamasi parlamentga bo'ysunadi —— 内阁对议会负责 *neige dui yihui fuze*

Parlament fuqarolar tomonidan saylanadi —— 议会由公民选举 *yihui you gongmin xuanju*

Parlament qonunchilik funksiyasini bajaradi —— 议会执行立法职能 *yihui zhixing lifa zhineng*

Hukumat [faoliyati] ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo'lmoq —— 享有监督政府的权力 *xiangyou jiandu zhengfu de quanli*

Davlat rahbari haqiqiy hokimiyatga ega emas —— 国家元首不掌握实权 *guojia yuanshou bu zhangwo shiquan*

Agar parlament vazirlar mahkamasining boshqaruv siyosatini qo'llamasa —— 如议会对内阁的施政方针不支持 *ru yihui dui neige de shizheng fangzhen bu zhichi*

Vazirlar mahkamasi to'la tarkibda iste'foga chiqishi kerak —— 内阁必须总辞职 *neige bixu zong cizhi*

Bir necha mamlakatlardan tashkil topgan yagona davlat —— 由几个国家联合组成统一的国家 *you ji ge guojia lianhe zucheng tongyi de guojia*

Xalqaro aloqalarda ishtirok etuvchi sub'yekt —— 是国际交往中的主体 *shi guoji jiaowang zhong de zhuti*

Federatsiya qarorlariga asoslanmoq —— 依据联邦的规定 *yiju lianbang de guiding*

To'g'ri-dan to'g'ri tashqi aloqalar o'rnatmoq —— 同国外发生直接关系 *tong guowai fasheng zhijie guanxi*

Parlamentning vakolatlari turli davlatlarda turlichadir —— 议会的职权各国不尽相同 *yihui de zhiquan ge guo bu jin xiangtong*

Parlamentning davlat moliya va soliq siyosatini belgilash huquqiga ega – 议会具有决定国家财政、税收等权利 *yihui juyou jueding guojia caizheng, shuishou deng quanli*

Bir palatadan tuzilgan qonunchilik organi —— 由一院构成的立法机关 *you yi yuan goucheng de lifa jiguan*

Keyinchalik boshqa davlatlar keng foydalangan —— 后为其他国家广泛采用 *houwei qita guojia guangfan caiyong*

Davlatda fuqarolik qonuniy huquqlariga ega bo'lmoq —— 享有本国公民的法定权利 *xiangyou ben guo gongmin de*

Parlamentning roziligisiz – 非经议会批准 *fei jin yihui pizhun*

Aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib bormoq —— 在居民中间展开广泛的解释说明工作 *zai jumin zhongjian zhankai guangfan de jieshi shuoming gongzuo.*

Mazkur bobga quyidagi xulosalarimizni keltirishimiz mumkin:

- Har qanday matnni vositachi til orqali o'girayotgan tarjimon o'zi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklardan tashqari, asarni asliyatdan vositachi tilga tarjima qilgan san'atkor tomonidan yo'l qo'yilgan nuqsonlarni ham beixtiyor takrorlaydi.

- Siyosiy matn tarjimasida noto'g'ri qo'llanilgan leksik birlik, gapdagi sintaktik almashtirishlar, tinish belgilarini xato joylashtirish kabilar noadekvat tarjimaga olib keladi. Siyosatchi fikr-mulohazasining bir qismini tushirib qoldirish bu nafaqat tarjimaning sifatini tushiradi, balki yana jiddiy siyosiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Chunonchi, siyosatchi bir voqea-hodisa, vaziyatga nisbatan o'z fikrini ifoda etayotganida ham ijobiy, ham salbiy qarashlarini bildirishi mumkin. Tarjimon tomonidan tushirib qoldirilgan fikr esa siyosatchining eng tayanch

mulohazasi bo'lishi mumkin va uning yo'qotilishi esa tarjima tili mamlakati aholisi tomonidan o'zgacharoq anglanishiga olib keladi.

- Tarjimonlik faoliyatida har bir sohaning o'z terminologiyasi hamda nutqning mazmun va ritmik-melodik jihatdan bir butunlikni hosil etuvchi semantik-sintaktik bo'lagi bo'lmish sintagmalarini mukammal o'rganib, xotirada saqlab qolishi siyosiy tarjimonning oldindan bashorat qila olish qobiliyatini o'stiradi, tarjimonning intellektual vazifasi uchun ancha yengillik beradi.

XULOSA

Birinchi navbatda shuni aytish lozimki, siyosiy tarjima masalalariga bag'ishlangan mavzuning tanlanishi tasodif emas. Gap shundaki, siyosiy tarjima nazariyasini qo'yaturaylik, tarjima nazariyasi tadqiqoti umumiy mazmunda extiyojtalab fandır. Ushbu mavzudagi masalalar tadqiqoti butun dunyo mamlakatlari tilshunoslarining e'tiborini jalb qiladi.

O'zbekiston hozirda nafaqat yon qo'shni davlatlar, balki chet mamlakatlarning korchalonlar doirasi vakillari bilan ham siyosiy va savdo-sotiq aloqalarining jadal rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Shu tufayli siyosiy sohada amaliy qo'llashga yo'naltirgan holda chet tillarini o'rganish zarurati ortib bormoqda. Mazkur mavzuning dolzarbligi aynan shundadir.

Biz ushbu magistrlik ishimizning xulosasi sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Siyosiy matnlar nafaqat mazmunli bir butunlik sifatida, ya'ni nafaqat biror-bir xabar yoki masala to'g'risida axborotni o'zida aks ettiradi, balki yana zaruriy auditoriyaga targ'ibot va tashviqotchilik ta'sirini o'tkazish uchun mo'ljallangan.
- Siyosiy matnlar janr jihatdan 3 guruhga bo'linadi: a) rasmiy xujjat materiallari (konstitutsiyalar va qonun chiqarish aktlari, nizomlari, partiyalar nizomi, diplomatik xujjatlar – notalar, deklaratsiyalar, kommyunike, shartnomalar va h.k.); b) axborot-tavsifiy materiallar (axborot qaydnomalari, ma'lumot beruvchi materiallar, tarixiy tavsiflar, biror-bir hodisa yuzasidan umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot xususiyatiga ega maqolalar, muammoli tematik maqolalar va h.k.); c) tor ma'nodagi publisistik maqolalar (munozarali maqolalar, pamfletlar, nutqlar va h.k.)
- Siyosiy matn tarjimasi betaraf tarjimon tomonidan amalga oshirilishi darkor. Xabarni ob'ektiv yondoshgan holda yoritish uchun, siyosiy tarjimon mazkur vaziyat haqida o'zining fikrini bermasligi yoki ongli ravishda qaysidir faktni boshqalari orasidan ajratib ko'rsatmasligi lozim.

- Siyosiy matnlarni tarjima qilishda transformatsiya va uning usullari hamda interpretatsiya tarjimonlik uslublariga jiddiy yondoshish lozim.
- Ijtimoiy-siyosiy terminologiya tushunchasi ostida jamoatchilik tafakkurida ijtimoiy-siyosiy hayotning muayyan tushunchalariga munosib soʻz yoki soʻz birikmalarini tushunamiz. Ijtimoiy-siyosiy mazmundagi matnlar harbiy soha, diplomatiya, saylov tizimi, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, jamoatchilik faoliyati kabilarga aloqador leksika va terminologiyani oʻzida qamrab oladi.
- Oʻzbek tilidan xitoy tiliga siyosiy matnlarni tarjima qilishda leksik birliklarni tanlash borasida diqqatli boʻlib, siyosiy terminologiyani qoʻllashda xato, kamchiliklarga yoʻl qoʻyilishini oldini olish maqsadida ularning yasalish, qoʻllanish doirasi va koʻlami, siyosiy soʻz va iboralarning sinonimik qatorini sintaktik jihatdan toʻgʻri qoʻllash kabi lingvistik-tarjimonlik bilimlarini chuqur egallash adekvat tarjimaning kafolati boʻlib xizmat qiladi.
- Siyosiy tarjimonning tarjimonlik faoliyatida siyosiy mazmundagi sintagmalarni oʻzlashtirib olish tarjima amaliyotida qoʻl keladi. Tarjimon siyosiy tarjimonlikni oʻrganish, uning ustida izlanish kabi jarayonlarda siyosiy terminologik lugʻati boyib boradi va shuning bilan birga, ushbu siyosiy termin va leksik birliklarni sintaktik, grammatik jihatdan bogʻlash natijasida oʻzi uchun yangi sintagmatik iboralarni yaratadi.
- Tarjimonlikda, ayniqsa siyosiy tarjimonlikda frazeologik birliklarni, siyosiy tamoyillarni, xalq maqollarini tarjima qilishda muqobillik va loʻndalikka katta eʼtibor beriladi. Asliyat tilidagi frazeologik birikmalarning tarjima tilidagi ayni muqobilini topib bera olish siyosiy matnning notoʻgʻri tarjima qilinib, ana shu mamlakat haqida notoʻgʻri tasavvur uygʻonishiga yoʻl qoʻymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

Asosiy adabiyotlar

- 1) Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005.
- 2) 伊斯拉姆·卡里莫夫/刘显忠等。乌兹别克斯坦人民从来不依赖任何人。 - 北京：时事出版社，2006年。Yisilamu Kalimofu/ Liu Xianzhong. Wuzibiekeshitan renmen conglai bu yilan renhe ren. – Beijing: Shishi chubanshe, 2006 nian.
- 3) Каримов И.А. Узбекский народ никогда и ни от кого не будет зависеть. – Т: Ўзбекистон, 2005.
- 4) Akimov T., Kiraubayev J.A. Xitoycha-o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at. – T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2002.
- 5) Алимов В.В., Артемьева Ю.В.. Общественно-политический перевод: Практический курс перевода: Учебное пособие. Изд. 3-е. — М.: Книжный дом «Либриком», 2009.
- 6) Azzamova N.Q.. Turk tilida jamiyat va davlat qurilishi bilan bog'liq atamalar/Magistr akademik darajasi uchun yozilgan dissertatsiya, - T.: 2009.
- 7) Войцехович И.В., Кондрашевский А.Ф.. Китайский язык/Общественно-политический перевод. – М.: Муравей, 2002.
- 8) Дипломатический словарь (1-том). – М.: Государственное издательство политической литературы, 1948.
- 9) Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005.
- 10) 孙德金. HSK 词汇攻关 (初、中等)。 - 北京：北京语言大学出版社，2003年。Sun Dejin. HSK cihui gongguan (chu, zhong deng): – Beijing: Beijing yuyan daxue chubanshe, 2003 nian.
- 11) Hamidov X., Azzamova N., Turkcha ijtimoiy-falsafiy va siyosiy atamalar tarjimasiga doir, Tarjima masalalari, ilmiy maqolalar to'plami. – T.: , 2012.
- 12) Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1985.

- 13) 《辞海》。 – 上海：上海辞书出版社，1999 年. «Cihai». – Shanghai: Shanghai cishu chubanshe, 1999 nian.

Qo'shimcha adabiyotlar

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

- 14) Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.
- 15) Karimov A.A. Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari. – T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2001.
- 16) Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1983.
- 17) “Tarjima san’ati” maqolalar to’plami. 5-kito’b. – T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
- 18) Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. T., 1972.
- 19) Xashimova S. «Hozirgi xitoy tilida reduplikatsiya». – T.: Press improve, 2012.
- 20) O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003.
- 21) G'afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. – T., 2008.

Rus tilidagi adabiyotlar

- 22) Горелов В.И. “Лексикология китайского языка”, М., изд. “Просвещение” 1984.
- 23) Мирам Г.Е. Профессия: переводчик. – Киев: Ника-Центр, 1999.
- 24) Назарова Г. Введение в языкознание. – T.: Типография ТашГИВа, 2001.
- 25) Софронов М.В. Китайский язык и китайское общество. Москва, 1979.
- 26) Хайруллаев М.М. Мироззрение Фараби. – T.: Фан, 1967.
- 27) Хуан Шуин, Крюков М.В. Древнекитайский язык. – М.: Наука, 1978.
- 28) Шутова Е.И. Синтаксис современного китайского языка. Москва, 1979.

Xorijiy tildagi adabiyotlar

- 29) 程明安，郝文华。应用汉语。－ 武汉：湖北人民出版社，2005。Cheng Ming'an, Hao Wenhua. Yingyong hanyu. – Wuhan: Hubei renmin chubanshe, 2005.
- 30) 冠楠。十万个为什么。－ 北京：京华出版社，2006 年。Guan Nan. Shi wan ge weishenme. – Beijing: Jinghua chubanshe, 2006 nian.
- 31) 韩鉴堂。中国文化。－ 北京：北京语言大学出版社，2003 年。Han Jiantang. Zhongguo wenhua. – Beijing: Beijing Yuyan daxue chubanshe, 2003 nian.
- 32) 徐宗才。古代汉语（三年级教材，第二册）。－ 北京：北京语言大学出版社，1998 年。Xu Zongcai. Gudai hanyu (san nianji jiaocai, di er ce). – Beijing: Beijing Yuyan daxue chubanshe, 1998 nian.
- 33) 姚丹。中国文学。－ 北京：2006 年。Yao Dan. Zhongguo wenxue. – Beijing: 2006 nian. - 148 ye.
- 34) 中国法哲学史纲。－ 北京：2005 年。 - 387 页。 Zhongguo fazhexue shigang. – Beijing: 2005 nian.
- 35) 朱庆明。现代汉语使用语法分析（下册）。 - 北京：清华大学出版社，2005 年。Zhu Qingming. Xiandai hanyu shiyong yufa fenxi. – Beijing: Qinghua daxue chubanshe, 2005 nian.

Lug'atlar

- 36) Ma'rufov Z.F. O'zbek tilining izohli lug'ati (2 tomli). Moskva, 1981.
- 37) Нелюбин Л.Л. Толковый переводческий словарь. – М.: Флинта, Наука, 2003.
- 38) Ruscha-o'zbekcha lug'at (2 tomli). – T.: O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1984.

- 39) *Filosofiya lug'ati*. – T.: O'zbekiston, 1976.
- 40) 汉俄词典。– 北京：商务印书馆，1977 年。Han-e cidian. – Beijing: Shangwu yinshuguan, 1977 nian.
- 41) 刘延勃。哲学辞典。– 吉林：吉林人民出版社，1985 年。Liu Yanbo. Zhexue cidian. – Jilin: Jilin renmin chubanshe, 1985 nian.
- 42) 孟君。汉英旅游文化词典。– 北京：旅游教育出版社，2003 年。Meng Jun. Han-ying lüyou wenhua cidian. – Beijing: Lüyou jiaoyu chubanshe, 2003 nian.
- 43) 现代汉语词典。– 北京：商务印书馆，2005 年。Xiandai hanyu cidian. – Beijing: Shangwu yinshuguan, 2005 nian.
- 44) 新华反义词词典。– 北京：商务印书馆，2004 年。Xinhua fanyici cidian. – Beijing: Shangwu yinshuguan, 2004 nian.

Internet saytlari

- 45) <http://www.baike.baidu.com>
- 46) <http://www.guoxue.com>
- 47) <http://www.synologia.ru>
- 48) <http://www.wikipedia.org.com>
- 49) <http://www.zhidao.com>